

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

QO`QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

GEOGRAFIYA O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

““Qizilqum tabiiy geografiyasi o`lkasini o`qitilishi.”

mavzusida bajargan

BMI

Bajaruvchi: Abdujabborova G

Ilmiy rahbar: Nazarov H.

QO`QON-2019

MUNDARIJA

KIRISH.....

I.BOB. QIZILQUM OKRUGINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI.

1.1. Geografik o' rni va chegaralari.....

1.2. Geografik o' rganilish tarixi.....

1.3. Geologik tuzilishi va relyefi.....

1.4. Iqlimi va ichki suvlari.....

1.5. Tuproq-o' simlik qoplami va hayvonot dunyosi 32

II. BOB. QIZILQUM TABIIY GEOGRAFIK O' LKASINING O' QITILISH YO' LLARI.

2.1. Geografiya ta' limida foydalaniladigan metodlar.....32

2.2. Maktabda ta' limida “Qizilqum tabiiy geografik okrugi”ga oid
mavzularning o' qitilishi.....34

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda geografiya ta'limida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim jarayonini samaradorligini hozirgi kun talablar darajasida amalga oshirish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz SH. M. Mirziyoevning 2017-21 yillarni o'zichiga olgan, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasida ham bu jarayonga etibor berishgan. Mavzuni amalga oshirishda shu kun talabi asosida ta'lim berish, amalga oshirishda, uning ko'rgazmaliligini, komliksliligini, qolaversa darsning ayrim qismlarini interfaol metodlardan, ananaviy ta'lim jarayoni muqobil metodlaridan asosiy dolzarb masalasi hisoblanadi. Oqubchi "Qizilkum tabiiy geografik o'lkasini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirish uchun izlanishlar olib borish juda katta islubiy didaktik bilim kerak bo'ladi. Ushbu mavzuni o'tishda qisqa vaqt ichida yuquvchilarga tiliq va aniq bilim etkazib bериш, yuquvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish hamda ularда O'zbekiston tabiiy geografiyasi faniga b'lgan qiziqishni orttirishdan iboratdir.

Biroq, bugungi kunda mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishda "Qizilqum" tabiiy geografik rayonining o'rnini juda katta hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab geologik tadqiqotlar olib borilmoqda. "Oliy Majlis Senatining o'n to'qqizinchi yalpi majlisi oldidan Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan joriy yilning birinchi choragida 388ta loyiha doirasida geologiya-qidiruv ishlariga 788 milliard so'm mablag' ajratish rejalashtirilgan. Loyihadagi ishlarning ko'pchiligi Manash tabiiygeografik rayonga to'g'ri keladi. Ushbu mablag'lar hisobidan Oltin, kumish, uran, temir, qo'rg'oshin, kvars, basalt kabi hamda yer osti suvlari, 17 xil foydali qazimalar zahirasi ko'paytirilganligi"¹, bu rayonning o'rganish asosiy dolzarb masala hisoblanadi.

"Daryo" - habarlari, 3-may 2019yil.

география фани бўйича тайёрланган электрон дарсликлар сони кўпчиликини

ташқил этмайди ёки мактаб география фани ўқитувчиси таълимнинг замонавий техникалари, яъни компьютер, видеопроектор ва овозли воситалардан фойдаланиш малакасига эга эмас. Бу ўз навбатида бу масалани амалга оширишда маълум қийинчиликлар, ноқулайликлар келтириб чиқаради. Мавжуд электрон дарсликлардан фойдаланишда эса алоҳида меъзонларга асосланган услублар ҳанузгача услубчилар томонидан мукаммал даражада ишлаб чиқилмаган. Бундай ҳолат ушбу ишнинг **долзарблигини** белгилайди. Qizilqum cho'li uchun yer va suv resurslari orasidagi juda katta nomutanosiblik xos. Yerlardan foydalanish jarayonida, tabiiy va antropogen omillar ta'siri ostida yer resurslarida turli xil nomaqbul jarayonlar kechayotganligi ushbu hududda alohida tadbirlar ishlab chiqish lozim ekanligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qizilqum cho'li va uning tabiati haqida tabiiy geografiya, landshaftshunoslik, meliorativ geografiya kartografiya - topografiya kabi fan sohalari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, I.A.Hasanov (1976-1981Y), L.M.Rasulov (1964-71Y), S.I.Abdullayev (1994-1999), O.Yu.Poslavskaya (1966), L.N.Babushkin (1952), Sh.S.Mirzayev (1974), M.A.Pankov (1969), A. Rafikov (1999), S.A.Nishonov (1978), A.M.Mamatov (1990-1992), E.I.Chembarisov, B.Bahriddinov (1986) kabi olimlar ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borganlar. Qizilqum cho'lining geografik o'rni, chegaralari, maydoni va rayonlashtirilishi haqida Sh.S.Zokirov (1980 y), I.A.Hasanov (1976-81), S.I.Abdullayev (1994), M.P.Petrov (1967), A.G.Babayev (1977), Z.G.Freykin (1977) M.Umarov (1964), L.N.Babushkin (1952), Y.N.Balashova (1962) kabi olimlar muhim ishlarni amalga oshirgan. Qizilqum cho'lining geologik tuzilishi va iqlimi to'g'risida L.M.Rasulov (1964-76), O. Yu. Poslavskaya (1966), L.N.Babushkin (1959), I.A.Xasanov (1976 -1981),

A.M.Mamatov (1990-1992 y), S.I.Abdullayev (1994) kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Qizilqum cho'lining tuproqlari, yer osti suvlari va sho'rlanish darajasini L.M.Rasulov (1964), Sh.S.Mirzayev (1974), I.A.Hasanov (1976-1981), A.M.Mamatov (1992), S.I.Abdullayev (1994) lar o'rganishgan bulsa, cho'l lanshaftlarini tasniflashda S.A.Nishonov (1978), A.M.Mamatov (1990) kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar e'tiborga molik. Biroq, Qizilqum cho'li yer resurslari sifat jihatdan har doim ham o'zgarib kelgan va o'zgarish davom etmoqda. Bu yerda agroirrigatsion tadbirlar tufayli tuproq qatlami o'z tarkibini o'zgartirib bormoqda va bu albatta doimiy nazoratda turmog'i va tadqiqotlar davom ettirilmog'i lozim.

BMIish ishining maqsadi – Qizilqum tabiiy geografik rayonini, tabiiy geografik jihatidan mukammal o'rganish. Qizilqum cho'li yer resurslaridan samarali foydalanishda mavjud muammolarni o'rganib, ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq etish, ta'lim jarayinida turli xil metodlardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish.

BMIish ishining asosiy vazifalari:

- Qizilqum cho'lining tabiiy sharoiti va resurslarini o'rganish;
- Qizilqum cho'li yer resurslari va ulardan foydalanishning hozirgi holatini aniqlash;
- Qizilqum tabiiy geografik o'lkasini o'qitish metodlari asoslarini ishlab chiqish;
- Maktabda ta'limida Qizilqum tabiiy geografik okrugiga oid mavzularning o'qitilishi amalga oshirish.
- Pedagogik texnologiyalardan foydalanib 1 soatlik dars ishlanmasini yaratish.
- **Ilmiy va amaliy ahamiyati.** Maktabda ta'limida Qizilqum tabiiy geografik okrugiga oid mavzularning o'qitilishi amalga oshirish bilan birga, boshqa o'lkalarni o'qitishda, ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

BMIish ishining ilmiy yangiligi:

-мактаб география таълими мазмунига қўйилган талаблар ўрганилди;

-O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi darslarida ta'limningzamonaviy bilim berish masalalari taxlil etiladi.

-

-география таълимида электрон дарсликлардан фойдаланиш услублари ишлаб чиқилди

♦ Qizilqum cho'li doirasida kechayotgan muhim geoeologik muammolar aniqlanadi;

♦ yer resurslaridan hozirgi paytda mamlakatimiz sanoati, qishloq ho'jaligida foydalanishning darajasi o'rganiladi;

♦ tuproqlarning sho'rlanishi va sug'orish erroziyasi holatlari o'rganilib, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi;

♦ yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofazasiga doir ilmiy tavsiyalar belgilanadi.

BMIning ob'ekti va predmeti. Mazkur ishimizning ob'ekti Qizilqum tabiiy geografik okrugi, Qizilqum cho'li tabiyati, **predmeti** esa, Qizilqum tabiiy geografik okrugini o'qitishda foydalaniladigan metodla, usullarhisoblanadi.

BMIning tuzilishi va xajmi. **BM**Ish kirish, 2 ta bob, 7ta bo'limdan, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. **BMIning** umumiy hajmi ___ betni tashkil etadi. Shundan bevosita matn qismi _betdan iborat. Ishda ___ ta adabiyot va manbalardan foydalanilgan. **BM**Ishda ta karta-sxema, ___ ta jadvallardan foydalanildi.

KIRISH.

Mazkur **BMI**lishi murakkab reja asosida tuzilgan bo'lib, 2 ta bob va 7ta bo'limlardan iborat. Birinchi bobda Qizilqum okrugiga tabiiy geografik tavsif ya'ni o'lkaning geografik o'rniga va rel'efiga, geologik tuzilish va foydali qazilmalari hamda iqlimiga ta'rif keltirganman. **BMI**lishining ikkinchi bobida Qizilqum okrugi tabiiy resurslari va tabiiy geografik rayonlari haqida ya'ni suvlari, tuproqlari, osimliklari, hayvonot dunyosi va tabiiy rayonlari hamda landshaftlari tog'risida ma'lumotlar keltiriladi. **BMI**lishini yozishdan maqsad O'zbekistonning tekislik qismi okruglarida biri bo'lgan Qizilqum cho'lining tabiiy geografik sharoiti, geologik tuzilishi qaysi davr yotqiziqlaridan iborat ekanligi va bu hududda qaysi foydali qazilmalarning qanday paydo bo'lishi haqida chuqur bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish. **BMI**da Qizilqum tabiiy geografik rayoning xaritasi va turli xildagi sxematik jadvallar bilan tasvirlashga harakat qilingan. Respublikamiz nihoyatda boy yaylovlar fondiga ega. Bu yaylovlar Orol dengizi bo'yidagi va tevaragidagi jazirama sahrolardan tortib, sovuq Tyan-Shan va Pomir - Oloy baland tog'larigacha bo'lgan g'oyat katta territoriyada joylashgan. Shu sababdan respublika uchun asosan cho'llaridagi yaylovlar katta ahamiyatga ega. Qumloq yerlar Navoiy,

Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qoraqalpog'iston doirasidagi Qizilqum territoriyasida yuzlab kilometrlarga cho'zilgan g'oyat katta massivni egallaydi. Qumli cho'l yaylovlaridagi bir yillik o'simliklar orasida arpag'on, yaltirbosh, qumochiq va chitir bahor va yoz oylarida chorva mollari yaxshi yeydigan boshqa o'tlarga nisbatan ko'proq uchraydi. Qumlar ustida yarim buta va butalar ham anchagina tarqalgan. Qumlar o'rtasida ba'zan sho'r sizot suvlari yer betiga yaqin turgan chuqur joylar uchraydi. Bunday yerlarda sho'rlar vujudga keladi. Kurschi Umrqulova Sitora o'z "Qizilqum tabiiy geografik okrugiga umumiy geografik tavsif." mavzusida yozgan **BMI**da Qizilqum xududida joylashgan qumli yaylovlarni yaxshilash borasida to'xtalgan.

Ma'lumki, keyingi yillarda chorva mollarini Qizilqumda tartibsiz boqish natijasida yaylovlar sifati yomonlashib, qashshoqlashib qoldi. **BMI**da yaylovlar sifatini yaxshilashning umumiy va ayrim agrotexnik usullarini ko'rsatib o'tilgan. **BMI** Kurs oldi praktikasida to'plangan materiallar, adbiyot manbalari va O'zbekiston statistika qo'mitasi va qorako'lchilik ilmiy tekshirish institutidan olingan ma'lumotlar asosida yozilgan. **BMI**ish kirish, III Bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

BMIning I bobda Qizilqum tabiiy hususiyatlari, geografik o'rni, o'rganilish tarixi, rel'efi va geologik hususiyatlari, tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi, iqlimi va ichki suvlari haqida ma'lumotlar berilgan.

II. Bobda Qizilqum tabiiygeografiko'lkasining o'qitish yo'llariniyoritishga harakat qilgan. Geografiya ta'limida foydalaniladigan metodlar, maktabda ta'limida "Qizilqum tabiiy geografik okrugi"ga oid mavzularning o'qitilishi yoriygan.


I.BOB. QIZILQUM OKRUGINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI.

1.1. Geografik o'rni va chegaralari.

O'zbekistonning tekislik qismi tabiiy geografik o'lkalaridan biri bo'lgan Qizilqum okrugi nafaqat O'zbekistonda balki O'rta Osiyodagi eng katta cho'llardan biri bo'lib uning O'zbekistonga qarashli g'arbiy katta qismi kiradi. Qizilqum okrugining shimoliy va sharqiy qismlari qo'shni Qozog'iston Respublikasi hududidadir. Shu sababli O'rta Osiyo tekislik qismining deyarli o'rtasida joylashgan. Qizilqum okrugi shimoliy chegarasi Qozog'iston chegarasidan o'tadi. Turon tekisligidagi eng katta cho'llardan biri bo'lgan, Qizilqum asosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan bo'lib, Qizilqumokruga Qizilqum cho'lining O'zbekiston xududida joylashgan qismi kiradi. Okrug shimoliy g'arbdan Quyi Amudaryo okrugi bilan, janub-sharqdan Quyi Zarafshon, sharqdan Tyanshan tog'

oldi xududlari va Mirzacho'l okrugi bilan chegaradosh. Okrug janubi - g'arbdan Turkmaniston, shimoli - sharqi Qozogiston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Qizilqum shimol – sharqdan, shimol - g'arbga pasayib boradi. Bu yerda botiqlar, tekisliklar, yassi platolar va qoldiq tog'lar mavjud. Lekin uning ko'pchilik qismini mutloq balandligi 200 m gacha bo'lgan qumli tekisliklar egallaydi. Mutloq

balandligi 200 - 300 m janub sharqda 350 - 400 m shimol - g'arbda esa 90-100 m
ga tushib boradi.



Qizilqum okrugi O'rta Osiyo tekisligi markazida bunday joylashganligi unda haqiqiy cho'llandshaftlari hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Qizilqum okrugi yer usti tuzilishi jihatdan bir hil emas. Tekisliklarning ko'pchilik qismini allyuvial sochilma qumlar ish'ol qilgan bo'lib asosan eol rel'ef shakllarini qum marzalari, do'ng qumlar, barxanlar mavjud. Qum marzalari meridional yo'nalishiga ega bo'lib o'simliklar bilan mustaxkamlangan ularning nisbiy balandligi 15-20 maksimal 60-70 m etadi. Qizilqum markazida bir necha berk botiqlar joylashgan, botiqlarning tagi qumdan iborat bo'lib, ustki qismi taqir yoki sho'rxaklardan iborat. Qoldiq tog'lar orasida tektonik botiqlar mavjud. Eng kattalari Bukantovning janubida dengiz sathidan -12 m pastda joylashgan **Mingbuloq**, Jetimtog'ning janubi - sharqida **Mullali**, Ovminzatog' bilan Qazaxtog' orasidagi **Qoraxotin**, Qo'ljig'itog' janubi - sharqidagi **Oyoqog'itma** botiqlaridir, bu botiqlarning har birining bo'yi 40-50 km etadi.

1.2 Geografik o'rganilish tarixi.

O'zbekistonda hozirgi paytda Qizilqum okrugining tabiiy geografik o'rganilishi tahlili qishloq xo'jaligini, sanoatni, axolini joylashuvini hududiy tashkil qilish masalalarini iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq qilish va bunda kartografik usulni qo'llash borasida respublikamizda diqqatga sazovor ishlar qilinganligini ko'rsatadi. CHunonchi, ushbu muammoning nazariy va uslubiy asoslari T.M.Mirzaliev (1966, 1987, 1996), A.E. Egamberdiev (1983), A. Bozorboev (1990, 1991), K. Gadoev (1993), E.YU. Safarovlarning (1996) ishlari e'tiborga sazovordir. Qizilqum cho'li va uning tabiati haqida tabiiy geografiya, landshaftshunoslik, meliorativ geografiya kabi fan sohalari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, I.A.Hasanov (1976-1981Y), L.M.Rasulov (1964-71Y), S.I.Abdullayev (1994-1999), O.Yu.Poslavskaya (1966), L.N.Babushkin (1952), Sh.S.Mirzayev (1974), M.A.Pankov (1969), A. Rafikov (1999), S.A.Nishonov (1978), A.M.Mamatov (1990-1992), E.I.Chembarisov, B.Bahriddinov (1986) kabi olimlar ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borganlar. Qizilqum cho'lining geografik o'rni, chegaralari, maydoni va rayonlashtirilishi haqida Sh.S.Zokirov (1980 y), I.A.Hasanov (1976-81), S.I.Abdullayev (1994), M.P.Petrov (1967), A.G.Babayev (1977), Z.G.Freykin (1977) M.Umarov (1964), L.N.Babushkin (1952), Y.N.Balashova (1962) kabi olimlar muhim ishlarni amalga oshirgan. Qizilqum cho'lining geologik tuzilishi va iqlimi to'g'risida L.M.Rasulov (1964-76), O. Yu. Poslavskaya (1966), L.N.Babushkin (1959), I.A.Xasanov (1976 -1981), A.M.Mamatov (1990-1992 y), S.I.Abdullayev (1994) kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlariiii olib borganlar. Qizilqum cho'lining tuproqlari, yer osti suvlari va sho'rlanish darajasini L.M.Rasulov (1964), O.Yu.Poslavskaya (1966), Sh.S.Mirzayev (1974), M.A.Pankov (1969), I.A.Hasanov (1976-1981), A.M.Mamatov (1992), S.I.Abdullayev (1994) lar o'rganishgan bulsa, cho'l lanshaftlarini tasniflashda S.A.Nishonov (1978), A.M.Mamatov (1990) kabi



tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar e'tiborga molik. Biroq, Qizilqum cho'li yer resurslari sifat jihatdan har doim ham o'zgarib kelgan va o'zgarish davom etmoqda. Bu yerda agroirrigatsion tadbirlar tufayli tuproq qatlami o'z tarkibini o'zgartirib bormoqda va bu albatta doimiy nazoratda turmog'i va tadqiqotlar davom

ettirilmog'i lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, bir qator cho'lshunos tadqiqotchilar, jumladan M.P.Petrov (1967), A.G.Babayev va 3.G Freykin (1977), M.Umarov (1964) va boshqalar O'rta Osiyo cho'l hududlarini tabiiy geografik rayonlashtirishda Qarshi cho'li g'arbini janubiy Qizilqum rayonining bir qismi sifatida qaraydilar. Shu sababli Qarshi cho'lining g'arbiy chegaralari relefida yaqqol ifodalanmagan. Bir qator xususiyatlariga ko'ra Qarshi cho'li Qizilqum va Qoraqum cho'llarini boglab turadigan oraliq polosani hosil qiladi. Ayni paytda bu hudud o'ziga xos individual xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli tabiiy-geografik rayonlashtirish tarxlarida Qashqadaryo tabiiy-geografik okrugining mustaqil, alohida tabiiy geografik rayoni sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Chunki landshaftlarni o'rganishda tizimli yondoshuv butun Qashqadaryo havzasining mustaqil paragenetik kompleks (geosistema) sifatida ajratishni taqozo etadi. Shuningdek, professor L.Alibekovning (1987) geopara konsepsiyasini qo'llash ham Qashqadaryo havzasida kechayotgan tabiiy jarayonlarning o'zaro bog'liq ekanligini, landshaft hosil qiluvchi omillarning bir-birini taqozo etishini ko'rsatadi.



Qizilqum okrugining tabiiy geografik xususiyatlari xaqidagi yaratilgan ilmiy va uslubiy kartografik asarlar asosan shoʻrolar davridagi tuzumni mohiyatidan kelib chiqib bajarilgan. Ayni vaqtda mustaqillik sharoitida, bozor munosabatlariga oʻtish davrida qishloq

xoʻjaligi tarkibiy oʻzgarishlarini, uning rivojlanishi, takomillashuvi va ixtisoslashuvini alohida hudud doirasida kartografik usuldan, ayniqsa zamonaviy geografik axborotlar tizimidan (GIS) foydalanib atroflicha oʻrganishga bagʻishlangan ishlar juda kamchilikni tashkil qiladi.

1.3. Geologik tuzilishi va relyefi

Qizilqum okrugining eng qadimiy quruqlikka aylangan qismi uning markaziy qismidagi platolardan koʻtarilib turgan poleozoy qoldiq togʻlaridir. Bu togʻlar juda ham emirilib ketgan boʻlib, mutloq balndliklari 922 m dan oshmaydi. Bu togʻlarning eng muhimlari Ovminzatogʻ (Irlir choʻqqisi 764 m) Etimtogʻ (568 m), Tomditogʻ (Otogʻ choʻqqisi 922 m), Ovminzatogʻ (635 m) Quljiqtogʻ (Irlir choʻqqisi 785 m) Qozoqtogʻ (613 m), Sulton Uvays togʻi (Ashitogʻ choʻqqisi 473m).

Shu sababli bu togʻlar kenglik buylab yoʻnalib poleozoy erasining kristalli slanetslari kvars slanetslari va oxaktoshlaridan tashkil topgan. Ular orasida granit, diorit, gronodiorit va boshqa otqindi jinslar ham uchraydi. Poleozoy qoldiq togʻlari keyinchalik asta – sekin emiriladi, emirilgan (nuragan) jinslar uning quyi qismiga

tushib to'planadi, oqibatda tog'lar pasayadi. Natijada dengiz suvi o'sha emirilib, pasayib qolgan poleozoy tog'larini ham bosib oladi. Poleozoy tog'larining emirilishi jarayoni neogen davrigacha davom etadi, so'ngra Tetis dengizi chekinib Qizilqum quruqlikka aylanadi. Poleozoy qoldiq tog'lari etaklarida bo'r va poleogen davr platolari joylashib, asosan, qumtosh, konglemerant, mergel, gil, qum kabi jinslardan tashkil topgan. Qolgan tekislik qismi neogen va antropogen davrining allyuvial tekisliklaridan, asosan dengiz va Amudaryo hamda Sirdaryoning yotqiziqlaridan iborat, ustini esa qalinligi 10-12 m qum qoplagan. Qizilqum okrugida, ayniqsa, poleozoy qoldiq tog'larda olin, slyuda, feruza, asbest, boksit, simob, grafit, volfram, talk, granit, yashma, island shpati tekislik qismida neft, gaz, oltingugurt konlari bor.

Lyosslarning qalinligi 30 m gacha yetadi. Qizilqum cho'li doirasida Ko'kdala urochishasida lyosslar ayniqsa keng tarqalgan.

Qizilqum cho'lida eng katta maydonlar Sukayti siklining yotqiziqlariga to'g'ri keladi. Bu yotqiziqlar Fyzop daryosi va Zarafshon daryoning quyi terrasalarini va konuslarini qoplagan bo'lib Buxorogacha yoppa qoplamni hosil qiladi. Sukayti siklining yotqiziqlari bu yerda qumli va mayda chagirtoshli lyoss, lyossimon qumoq (suglinka) lardan iborat bo'lgan qatlam-qatlam prolyuvial-allyuvial yotqiziqlarning uchirilish (deflyatsiya) mahsuloti bo'lgan qumlar bilan qoplangan. Qizilqum cho'li doirasida hozirgi relefning shakllanishiga deflyatsiya katta ta'sir ko'rsatadi. Shamolning roli qadimiy platolarda va Quyi Zarafshon konusining g'arbiy qismida qum marzalarining va tepaliklarning, ba'zi joylarida esa barxanlarning mavjudligida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki qoldiq platolar qumtoshlardan, Quyi Zarafshon konusining g'arbiy qismi esa yengil mexanik tarkibli prolyuvial-allyuvial yotqiziqlardan tarkib topgan.

Umuman Qizilqum cho'li hududining katta qismi yassi yoki biroz to'lqinsimon yuzaga ega. Relefning umumiy qiyofasi, shakli, geologik tuzilishi va paydo bo'lishiga ko'ra O.Yu.Poslavskaya (1966 y) Qizilqum cho'lida relefning

uchta yirik tipini ajratadi:

I. To'rtlamchi davr (asosan neogen, qisman paleogen va quyi to'rtlamchi davr) yotqiziqlardan tuzilgan qirlar, qirlarning reliefi cho'l doirasida eng baland va parchalangan.

Qizilqum cho'lining qirli joylari balandroq platolarga va qirlarga ajratiladi. TOMDITOG' da, Quljuqtog', Ovminzatog', YETIMTOG', Bo'kantog' va boshqalari qirlarga mansub. Paleogen davrining yotqiziqlari yuzaga chiqib turadigan joylarda mustahkam jinslarning chiqib turishi xos bo'lgan strukturaviy relief kuzatiladi. Bu qatlamlar ayrim joylarda qoyali va shakliga ko'ra xilma-xil reliefnı vujudga keltiradi. Yuqori bo'r va plitsenning karbonatli va gipsli yotqiziqlari uchun karst jarayonlari (Quljuqtog', Ovminzatog' da) xos.

Qirlarning ancha katta qismi o'rta va yuqori plitsen yotqiziqlaridan va neogenning gil, qum, alevrit va g'ovak jinslardan tuzilgan. Bu yotqiziqlar tepalarnı ajratib turadigan V - simon vodiylarnı hosil qiladi.

Qizilqum cho'lining sharqiy qismi Qo'ng'irtog', Kosontog', Maymanoqtog' va boshqa qirlar bilan (qadimiy qoldiq tog'lar bilan) ikki qismga ajralib turadi. Bu qirlar orasida eng balandi Qo'ng'irtog' bo'lib, uning balandligi 517 m ga yetadi va Qizilqum cho'li doirasida eng baland sathni hosil qiladi. Ovminzatog' ning balandligi 700 m, Olavuddintog' ning balandligi esa 485 m ga yetadi. Reliefi asosan to'lqinsimon tekisliklardan iborat bo'lgan Qizilqum cho'li o'rtacha balandligi sharqiy qismida 400-500 m, g'arbda esa 200-260 m gacha pasayib boradi.

Qizilqum cho'li zamini paleozoy davrida vujudga kelgan. Keyingi geologik davrlar davomida bir necha marta suv ostida qolgan. Paleogenning oxiri va neogenning boshlarida dengiz suvi chekinib quruqlikka aylangan.

Jarqoq (397 m) va Devxona platolari yuzasining nisbatan tekis yuzalari atrofdagi tekisliklarga nisbatan 20-25 m va undan ko'ra ko'proq balandroq bo'lgan nisbatan tikroq yonbag'irlar bilan o'ralgan.

Qirlar doirasida yuzaning ancha qiyaligi tuproq eroziyasiga sabab bo'ladi. Yonbag'irlar nisbatan qalin erozion botq (lojbina) lar bilan parchalangan bo'lib,

ularning chuqurligi asosiy yuzaga nisbatan 40 m dan ziyod. Shu sababli Devxona platosining kichikroq maydonlari sugʻoriladigan deqonchilikda foydalanishi mumkin. Ammo sugʻoriladigan deqqonchilikda bu maydonlarning foydalanilishi agromeliorativ va eroziyaga Qizilqum tadbirlarni tashkil etishni taqazo qiladi.

Qirlarda eroziyadan tashqari neogen davrining qumli yotqiziqlarida deflyatsiya jarayonlari ham ancha kuchli namoyon boʻlgan.

Qizilqum choʻlining shimoli-gʻarbidagi Shoʻrsoy shoʻrxogi doirasidagi qirlar boshqacharoq tuzilishga ega. Bu qirlarning nisbiy va moʻtloq balandligi uncha katta emas. Relefi qiya toʻlqinsimon yonbagʻirlar nishabligi 5-6°. Bu hududlarda eroziya jarayonlari yaqqol ifodalanmagan holda deflyatsiya ancha kuchli kechadi.

Oʻlkaning toʻrtlamchi davr terrasalari bilan bogʻliq boʻlgan kam parchalangan, asosan toʻlqinsimon va yassi, ayrim joylarda sertepali allyuvial-prolyuvial tekisliklar. Qizilqum choʻli doirasida allyuvial-prolyuvial tekisliklarning toʻrtta sathi ajratiladi. Ulardan ikkitasi oʻrta toʻrtlamchi davr yoshidadir. Eng past sathdagi tekisliklar yosh tekisliklar boʻlib, ular hozirgi tekisliklar deyiladi.

Oʻrta toʻrtlamchi (Toshkent yoki Qarnob sikllariga mansub) yuzalar Qizilqum choʻlidagi eng qadimiy yuzalardir. Bu yuzalar uchun nisbatan yoshroq yuzalar orasida nisbatan balandroq gipsometrik holatni egallaydi va ular asosan tipik liyosslardan (qatlamsiz yuqori karbonatli allevritlar (sutlinkalar)) tuzilgan. Relif morfologik jihatdan asosan toʻlqinsimon relefdan iborat. Yuza muvaqqat oqimga ega boʻlmagan soylar bilan parchalangan. Choʻlning gʻarbiyroq qismlarida yuza eng past sathiga ega.

Yuqori toʻrtlamchi davr yuzalari Qizilqum choʻlida eng katta maydonni band etgan holda Koson-Muborak temir yuli va Shoʻrsoy shoʻrxokning shimoliy chegarasi oraligʻida joylashgan. Shuningdek Nishon shahridan sharqroqda va Oloviddintogʻdan gʻarbroqda ham yuqori toʻrtlamchi davr yuzalari mavjud.

Yuqori toʻrtlamchi davr yuzalari qum yoki chagʻirtoshli qumlar bilan qoplangan qumoqlar va qumloqlardan tuzilgan. Bu yuzalar uchun sharqdan Fapbga tomon umumiy qiyalik xos. Eng baland nuqtalar Quruqsoy va Topichoqsoylarning



yuqori qismida va chekka janubi-sharqda joylashgan. Relifi sust parchalangan yassi tekisliklar ustivorlik qiladi. Soy yonbag'irlarining quyi qismlari va tublari bilan bog'liq bo'lgan to'liqinsimon tekisliklar kichikroq maydonlarni band etgan.

III. Hozirgi yuzalar Qizilqum cho'li relefida eng past gipsometrik sathni egallaydi. Bu xildagi tekisliklar asosan Qashqadaryo bo'ylab cho'zilgan hududiing o'rta qismida joylashgan hamda shimol va janubdan yuqori to'rtlamchi davr yuzalari bilan o'ralgan. Hozirgi tekisliklar Qashqadaryoning konussimon yoyilmasidan yoki quruq deltasidan iborat. Deltaning yuqori qismi Qizilqum shahri yaqinida joylashgan. Qizilqum shahridan yuqoriroqda Sirdaryo sikliga mansub bo'lgan ikkita terrasa (birinchi terrasaning balandligi 1,0-1,5 m, ikkinchisiniki 2,5-3 m) ga ega bo'lgan vodiy yaqqol ifodalangan.

Hozirgi tekislikning eng baland joylari Qizilqum shahridan sharqroqda Qashqadaryoning vodiysida, eng pastqam joylari esa Qizilqum cho'lining g'arbiy qismlarida joylashgan.

Hozirgi allyuvial-prolyuvial tekislikning katta maydonlari deyarli tekis relefga ega, gorizonta va vertika parchalanish darajasi juda kichik. Bu tekislik uchun relefnig antropogen shakllari (zovurlar, ariqlar, ularning yoqalaridagi tepalar, qadimiy qalalar o'rnidagi tepalar, qo'riqchi qo'rg'onlar va boshqalar) ning keng tarqalganligi ayniqsa xosdir.

Qizilqum cho'lida, ayniqsa uning g'arbiy qismida, eol-akkumulyativ relef tiplari (vujudga kelish jihatidan) keng tarqalgan. O.Yu.Poslavskayaning (1959 y) tadqiqotlariga ko'ra eol-akkumulyativ relef tiplari vujudga kelishi jihatidan eroziya-akkumulyativ relef tiplari bilan chambarchas bog'liq.



Bu yerda eol reliefi tipida marzali va tepali qumlarning kichik relief tiplarini ajratish mumkin. Marzali (gryadali) qumlar kattaroq maydonlarni ishgʻol etgan va Qashqadaryoning quyi oqimida uning oʻng va soʻl sohillari boʻylab Qizilqum vohasidan gʻarbroqda Qirqchashma va Beshkun quduqlari atrofidagi katta hududlarda tarqalgan. Qum

marzalari asosan meridional yunalishga ega marzalar orasidagi masofa chekka qismlarda 1 km gacha yetgani holda markaziy qismlarda 50 m gacha yetadi. Qum marzalarining eng katta balandligi 10-15 m boʻlsada, 3 m gacha boʻlgan balandliklar ustivorlik qiladi.

Qizilqum choʻlining chekka gʻarbida marzali qumlar va allyuvial-prolyuvial tekisliklarda “orolchalar” koʻrinishida qum tepalari uchraydi. Bu qum tepalari oʻsimliklar bilan berkitilgan boʻlib, ularning balandligi 2-3 m dan oshmaydi. Qum tepalari orasida deflyatsiya botiqlari joylashgan.

Qizilqum choʻlining shimoliy va janubi-sharqiy qismlari Zarafshon va Hisor tizmalarining togʻ oldi tekisliklarida joylashgan va ular toʻlqinsimon parchalangan, kam parchalangan va tekislik qismlarga ajratiladi.

Qizilqum choʻlida tekisliklar orasida kuchli shoʻrlangan botiqlar (shoʻrxoklar) uchrab turadi. Beshkent shahridan janubroqdagi Choragil, Muborak shahridan shimoldagi Shoʻrsoy, Sandikli qumli choʻlining shimolroqdagi Dengizkoʻl botiqlari

shular jumlasidandir. Absolyut balandligi 300-400 m bo'lgan tekisliklar doirasida vujudga kelgan bu botiqlarning nisbiy chuqurligi 20-40 m, bu botiqlar sho'rxoklar sifatida ajralib turadi.

Qizilqum cho'lining janubiy qismi Nishon cho'li deyiladi. Nishon cho'li yer usti tuzilishi jihatidan tekisliklardan va ular orasidagi platosimon balandliklardan iborat. Bu balandliklar orasida, ayniqsa Qoraqir (absolyut balandligi 500 m) Do'ltalitog' (514m), va Oloviddintog' (485 m) ajralib turadi. Bu balandliklar orasida Qoraqir suv eroziyasi tufayli kuchli parchalangan. Shu sababli mahalliy aholi Qoraqirning jarlar ko'p bo'lgan qismini Saksondara deb atashadi.

Qizilqum cho'li g'arbda Sandiqli qumligi bilan tutashib ketadi. Sandiqli qumligi Qizilqum cho'lini Qoraqumdan ajratib turadi. Sandiqli qumli cho'lining yuzasi qator-qator Qum tepalari va marzalardan iborat. Bundan tashqari, bu yerda ko'chma qumlar va taqirlar ham uchraydi. Qizilqum cho'li shimol va shimoli g'apbga davom etib, Qarnob va Malik cho'llariga tutashib ketadi.

Qizilqum cho'lida eng yangi tektonik harakatlar, hozirgi ekzogen jarayonlar, litologik farqlarning o'ziga xosligi bu yerda hududiy geomorfologik tafovutlarni vujudga keltiradi. O.Yu.Poslavskaya bu belgilarga ko'ra Qizilqum cho'lida 10 ta geomorfologik rayonni ajratadi.

Geomorfologik sharoitlariga ko'ra Qizilqum cho'li hududining katta qismi mexanizatsiyalashgan sug'orma dexqonchilik uchun qulay sharoitlarga ega.

Ayni paytda deyarli batamom o'zlashtirilgan va sug'orilayotgan massivlar Qizilqum shahridan janubi-g'ap6 va Koson shahridan shimoli-g'arbda yastanib yotadi. Qashqadaryo o'zaniga tutash joylarda ariqlar va zovurlar yaqinidagi maydonlarda eroziya tufayli jarlar hosil bo'lgan.

Tekislikning ancha katta qismi o'zlashtirilganligi sababli shoxobchali sug'orish (irrigatsiya) eroziyasi, sho'rlanish, botqoqlashuv (zax bosishi), shamol eroziyasi (deflyatsiya) kabi nomaqbul jarayonlarning tarkib topayotganligi kuzatiladi.

Tekislik relefida inson tomonidan qadimgi bunyod etilgan tepaliklarning tez-

tez uchrab turishi ham relefning muhim belgilaridandir. Qizilqum okrugida foydali qazilmalar qazib olinayotgan va qazishga tavsiya qilingan konlarni o'zlashtirish asosida oltin, uran, qurilish xomashyolari, keyinchalik mis, boksit, stronsiy konlarini o'zlashtirish asosida Zarafshon, Uchquduq, Tomdibuloq, Ko'kpatos ishlab chiqarish tarmoqlari, Tasqazg'on ishlab chiqarish shaxobchasi, Gazli ishlab chiqarish tarmog'i vujudga kelgan.

Qizilqumda bir necha oltin koni bo'lib, bular orasida eng kattasi Muruntov konidir. U zahirasi, sifati va qazib olishning arzonga tushishi jihatidan dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi.

1.4 IQLIMI VA ICHKI SUVLARI

Qizilqum okrugi shimoldan janubga g'arbdan janubga katta katta masofaga cho'zilganligi, xavo massalarini to'suvchi yirik tog'liklar va gidrografik resurslarning yo'qligi, okrugda katta xudud bo'ylab past bosimli depressiyali bosim mintaqalarning mavjudligi o'lkaning issiq iqlimli arid zona ekanligini bildiradi. Qizilqum tabiiy-geografik o'lkasi mo'tadil va subtropik mintaqalarda joylashsada, uning iqlimi, xususan, tekislik qismining iqlimi shu geografik kenglikka xos bo'lmagan quyidagi xususiyatlarga ega: yozning jazirama issiq, seroftob va quruqligi; qishning shu kenglik uchun nisatan sovuqligi; haroratning oyda va yilda keskin o'zgarishi; yog'in miqdorining kamligi va uni yil fasllarida notekis taqsimlanishi; havoning quruqligi va ochiqligi (kam bulutligi); Quyoshning uzoq vaqt nur sohib, yoritib turishligi. Qizilqum o'lkasi geografik o'rniga ko'ra okean va dengizlardan minglab chaqirim uzoqda, Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi, g'arbiy, shimoli-g'arbiy va shimoliy qismining ochiqligi, aksincha, janubi, janubi-sharqiy qismini baland tog'lar o'rab olganligi tufayli kontinental iqlim bilan tavsiflanib, iqlim unsurlarining deyarli barchasi yil va yil fasllarida o'zgarib turishi yaqqol seziladi. Ayniqsa, bu o'lkaning havo haroratining qishda, yozga, kunduzdan kechaga keskin o'zgarishi, sovuq qishning tezda sernam

bahorga, so'ngra tog'li qismidan istisno tezda isib ketib bir necha oy deyarli yog'in tushmaydigan jazirama, serquyosh yozga o'tishi, nisbatan qurg'oqchil va issiq kuzning birdaniga sovib, yog'in yog'ib ketishi hamda ancha isishi kabi kontinental iqlimga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud. Qizilqum tabiiy - geografik o'lkasi iqlimining bunday xususiyatlar bilan tavsiflanishi uning iqlim hosil qiluvchi omillariga bog'liq. O'lka iqlimini hosil qiluvchi omillar ichida eng muhimlari uning geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiyasiyasi; atmosfera sirkulyasiyasi; yer usti tuzilishi (relyefi); yer usti holati va antropogen omillardir. O'rta Osiyo tabiiy - geografik o'lkasi iqlimining bunday xususiyatlar bilan tavsiflanishi uning iqlim hosil qiluvchi omillariga bog'liq. O'lka iqlimini hosil qiluvchi omillar ichida eng muhimlari uning geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiyasiyasi; atmosfera sirkulyasiyasi; yer usti tuzilishi (relyefi); yer usti holati va antropogen omillardir. Qizilqumning shimoliy qismi iqlimi asosan Markaziy Osiyo antitsikloni va garbdan keladigan siklonlar ta'sirida vujudga kelsa janubiy qismida iqlimning shakllanishida tropik havo massalari ta'siri ancha katta. Yanvar oyining shmolda -4° - 10° , janubida -1° , -2° , -3° , qishda Sibir antitsiklonidan vujudga kelgan havo massasi muhim omil xisoblanadi. Harorat -35° gacha tushadi. Yozi quruq, ochik, issiq iyulning o'rtacha harorati 28° , 30° . Iyulning 26° izotermasi okrugning shimoliy -garbiga to'g'ri keladi. Eng issiq q 46° . Yog'in 75-100 mm, janubi sharqida 100-150 mm, Nurota tog'lariga yaqin qismida 200 mmga etadi. Yog'inning 48% bahorga; 30% qishga; 19% kuzga; 3% yozga tug'ri keladi. Yog'inning bir qismi qor holda yog'sada (20sm) u uzaq saqlanmaydi. (20 kungacha turadi). Qizilqum cho'lining iqlim sharoitlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, yozning issiq, qishning nisbatan sovuqroq bo'lishi, ob-havoning kun, mavsumlar va yil davomida o'zgarib turishi, yog'in-sochin miqdorining kamligi O'zbekiston janubining iqlimi uchun xos bo'lgan xususiyatlardandir. Iqlimning bu xususiyatlari hududiing geografik o'rniga, Quyosh radiatsiyasining miqdoriga, atmosfera sirkulyatsiyasining xususiyatiga bog'liq.

Cho'lining geografik o'rni, ya'ni okean havzalaridan uzoqda, Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi, bu hudud iqlimining keskin kontinental bo'lishiga, intensiv radiatsiya tufayli cho'l landshaftlarining vujudga kelishiga imkon beradigan quruq (arid) sharoitlarning mavjudligiga sabab bo'ladi. Qizilqum cho'lining geografik o'rni tufayli Quyosh radiatsiyasi va u bilan bog'liq bo'lgan issiqlik miqdori ancha katta bo'ladi. Qizilqum cho'lining qishi iliq, yanvarning o'rtacha harorati hududiing barcha joylarida -1°S , $+5^{\circ}\text{S}$ bo'lib, o'simliklar deyarli butun yil davomida rivojlanishda davom etadi. Lekin, ba'zan Arktika havo massasi kuchayib ketganda tog'lardan oshib o'tib bu hududlarda haroratni juda pasaytirib yuboradi. Yoz issiq va uzoq davom etadi, qish esa ancha qisqa bo'lib, uncha sovuq bo'lmaydi. Qizilqum cho'lida quyosh radiatsiyasining yalpi miqdori dekabrda taqriban 1 sm^2 yuzaga 100-115 Mj (har 1 sm^2 yuzaga 13-15 kkal) ni, iyulda 634-635 Mj (13kkal) ni, yil davomida 4000-4450 Mj (83-85 kkal) ni tashkil etadi. Bu yerda quyosh va atmosfera radiatsiyasidan hosil bo'ladigan issiqlikning o'rtacha miqdori taqriban 6100-6600 Mj (145-155 kkal) ni tashkil etadi. Radiatsiya balansining yillik miqdori esa 2800 Mj/m^2 bo'ladi. Issiqlik sharoitlarining holati radiatsiya sharoitlari bilan chambarchas bog'liq. Qizilqum cho'li hududida yillik o'rtacha harorat $15,6-15,8^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etadi. Eng sovuq oy – yanvarning o'rtacha harorati -38°S dan (Churukda) 31°S gacha (Tomdida) o'zgaradi. Ayrim yillarda qish iliq keladi va o'simliklar vegetatsiyasi uzluksiz bo'ladi. Bunday qishlarni L.N.Babushkin «vegetatsiyali» qish deb atashni taklif etgan edi. Qizilqum cho'lida «vegetatsiyali» qishlar 60-70% ni tashkil etadi. Vegetatsiyali qishda o'simliklar juda sekin bo'lsada to'xtovsiz rivojlanadi va bahorga kelib tez o'sib ketadi. Ayrim yillarda Arktika sovuq havo massalarining kirib kelishiga bog'liq holatda qishda havo sovib ketadi va yanvarning o'rtacha minimal harorati $-5,1 -3,1^{\circ}\text{S}$ gacha pasaygani holda absolyut minimal haroratlar $-25 -29^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etadi. Hisoblarga qaraganda sovuq qish har 120-130 yilda kuzatiladi. Qishning sovuq

kelishi ayniqsa mevali daraxtlar uchun xavfli bo'ladi. Qizilqum cho'lida eng issiq oy – iyul oyidir. Yoz oylarida butun O'rta Osiyo hududi issiq tropik havo massasi bilan qoplanganligi bois iyunning o'rtacha harorati $+40$ $+43,6$ °S bo'ladi, kunduz kunlari harorat $+36$ $+37$ °S gacha ko'tariladi. Eng yuqori harorat (absolyut maksimum) cho'l hududida $+48$ $+50$ °S ni tashkil etgan holda iyul oyining o'rtacha eng yuqori harorati $+38,7$ $+39,1$ °S bo'ladi. Issiq iqlimli hududlar uchun uzoq davom etadigan vegetatsiya davrida issiqlik miqdorining katta bo'lishi va haroratlarning yuqoriligi katta tabiiy ne'matdir. Issiqlik resurslarini baholashda G.G.Selyaninova, F.F.Davitaya tavsiya qilgan ko'rsatkich - musbat (ijobiy) haroratlarning jami deb nomlangan ko'rsatkich keng qo'llaniladi (Shulgin, 1978 y). O'rtacha kunlik haroratlar $+5$ °S dan o'tganda o't o'simliklar, $+10$ °S dan o'tganda esa barcha madaniy o'simliklarning vegetatsiya davri boshlanadi. Shu sababli $+5$ °S va $+10$ °S dan yuqori bo'lgan davrdagi ijobiy haroratlarning jamini hisobga olish qishloq ho'jalik amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Qizilqum cho'lida $+5$ °S dan yuqori bo'lgan haroratlarning yig'indisi 5500 °S dan ortiq bo'lib, 21-26 fevraldan boshlab o'rtacha kunlik harorat $+5$ °S dan osha boshlaydi va cho'lning sharqiy qismida 8 dekabrgacha, g'arbiy chekkasida esa 26 noyabrgacha davom etadi (272-299 kun). O'rtacha kunlik haroratlar $+10$ °S dan yuqori bo'ladigan kunlar esa 225-229 kunni tashkil etgan holda 18-21 martdan 2-3 noyabrgacha cho'ziladi. O'rta Osiyoning tekislik va tog' oldi hududlarida olib borilgan kuzatishlar asosida olingan ma'lumotlarning tahlili havoning o'rtacha kunlik harorati $+5$ °S dan o'tishi qish faslining tugashi va bahor faslining boshlanishi, $+5$ °S dan pasayishi esa kuz faslining tugashi va qish faslining boshlanishi deb hisoblanadi. O'rtacha kunlik haroratlarning $+5$ °S dan oshishi va pasayishi oralig'idagi davr iliq davr deb hisoblanishi mumkin. Qizilqum cho'lida harorat $+5$ °S dan yuqori bo'lgan davrdagi ijobiy haroratlarning yig'indisi 5000 °S dan ziyod bo'ladi. Harorat $+10$ °S dan yuqori bo'lgan davrda esa $4650-5230$ ° ga teng bo'ladi. Faol (ijobiy) haroratlarning

yig'indisiga ko'ra Qizilqum cho'li issiq ($4500-5000^{\circ}\text{S}$) va juda issiq (5000°S dan ortiq) zonalarga mansub. Qishloq ho'jalik amaliyotida yog'in-sochin, bug'lanish va namlanish miqdorlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sug'oriladigan dexqonchilikda sug'orish maydonlarini belgilash uchun bu miqdorlarni bilish juda zarur. Qizilqum cho'lining hududi uchun yog'inlarning hududiy jihatdan ham, mavsumiy jihatdan ham notekis taqsimlanishi xos. Cho'lining g'arbiy chekkasi uning eng qurg'oqchil joyidir. Uchquduq shahridagi meteorologik stansiyaning ko'p yillik ma'lumotlariga ko'ra bu yerda yillik yog'inlarning miqdori atigi 131 mm ni tashkil etadi. Uchquduq shahridan sharq va shimoli-sharq tomon mutlaq balandlikning ortishiga bog'liq holda yillik yog'inlarning miqdori birmuncha ko'payib boradi. Hisoblarga qaraganda, Qizilqum cho'lining shimoliy va o'rta qismlarida dengiz sathidan 280 m dan 350-370 m. gacha bo'lgan balandliklarda har 100 m da yillik yog'inlarning miqdori 34 mm ga, 350-370 m dan 600-650m bo'lgan balandliklarda esa har 100 m ga ko'tarilishi bilan 50-60 mm ga orta boradi (Babushkin, 1959 y.). Yuqorida qayd qilinganidek, atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishida ham notekislik yaqqol namoyon bo'ladi. Qizilqum cho'lida yog'inlarning katta qismi kuzgi-qishki-bahorgi davrda tushadi. Ayniqsa bahorda (mart-aprel-may) yillik yog'inlarning katta qismi tushadi (45-54 % i), yillik yog'inlarning 32,5-42 % i qishki mavsumga, dekabr-yanvar-fevral oylariga to'g'ri keladi. Shunisi xoski Qizilqum cho'lining sharqiy qismida qishki yog'inlarning miqdorini 42 % ini (Qarshi shahri) tashkil etgan holda uning g'arbiy (Qiziltepa shahrida 38 %) va Markaziy va g'arbiy (32,5 %) qismlarida kamroqdir. Yillik yog'inlar miqdorida kuz oylarida (sentyabr-noyabr) tushadigan yog'inlarning ulushi atigi 9,5-10,5 % ni tashkil etadi. Yoz oylarida tushadigan yog'inlarning miqdori 1-2 mm dan oshmaydi. Yillik yog'inning miqdorida qop ko'rinishida tushadigan yog'inlarning nisbati uncha katta emas. Qizilqum cho'li hududida qop qoplamining saqlanishi 15-25 kunni tashkil etadi.

Ma'lumki, yillik yog'inlarning miqdori muayyan hududning tabiiy namlanish sharoitlari to'g'risida ishonchli ma'lumot (tasavvur) bera olmaydi. Chunki Qizilqum cho'li hududida boshqa arid hududlardagi kabi bug'lanish yillik yog'inlar miqdoriga nisbatan ancha ko'p bo'ladi. Bug'lanishning miqdorini bilish namlanish balansi (koeffitsiyenti) ni bilishga va aniqlashga, pirovardida sug'orish me'yorlarini belgilashga imkon beradi. Namlanish koeffitsiyenti muayyan davrda tushadigan yog'inlar miqdorining shu davrdagi mumkin bo'lgan bug'lanish miqdoriga nisbatini bildiradi. Qishloq ho'jalik amaliyotida namlanish koeffitsiyentini aniqlash uchun ko'pgina ko'rsatkichlardan (balansi, indeksi, darajasi) foydalaniladi. Ular orasida landshaft tiplarini aniqlashda va har bir landshaft tiplariga monand holda qishloq ho'jalik ekinlarining maydonlarini joylashtirishda G.N.Visotskiy-N.N.Ivanovning yog'inlarning mumkin bo'lgan bug'lanishga nisbatini ifodalaydigan namlanish koeffitsiyentini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

S.I.Abdullayev tomonidan bajarilgan hisoblarga ko'ra, N.N.Ivanovning namlanish koeffitsiyenti (GTK) Qizilqum cho'li hududida atigi 0,10-0,15 ni tashkil etadi. Shu sababli bu hudud iqlimning keskin arid tipiga mansub.

Iqlim bo'yicha rayonlashtirishda Qizilqum cho'li aloxida iqlim rayoni sifatida ajratiladi va Qizilqum iqlim rayoni nomi bilan Qizilqum iqlim okrugiga kiritiladi. Qizilqum okrugininng O'zbekiston hududini iqlim jihatdan rayonlashtirishga dastavval L.N.Babushkin (1952) keyinroq Ye.N.Balasheva va boshqalar (1962), N.S.Konovalova (1986) va boshqalar Qizilqum cho'lini issiq iqlim rayonlari guruxiga kiritadilar. Bu iqlim rayonining sharqiy chegarasini Ye.N.Balasheva va boshqalar (1962) 500 metrlik izogips bo'ylab o'tkazishadi. Qizilqum cho'li tuproqlarini uzoq yillar davomida o'rgangan A.Rasulov (1964) bo'z tuproqlar mintaqasining quyi polosasini tashkil etgan och bo'z tuproqlar tarqalgan hududlarni Qizilqum cho'lga kiritadi va och hamda oddiy (tipik bo'z) tuproqlar orasidagi chegarani 500 metrlik izogips orqali o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlagan edi.

Tabiiy komponentlar va komplekslar tabiiy geografik kartalarini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, kartalarning aksariyat katta qismida Qizilqum cho'li hududi keskin ontinental mo'tadil mintaqaga kiritiladi.

Tuproq geokimyoviy rayonlashtirish tarxlarida (Perelman, 1955, Gerasimov, 1966) Qizilqum cho'li hududi O'rta Osiyo markaziy cho'llar zonasiga kiritiladi. Iqlim sharoitlariga ko'ra ham bu hudud L.N.Babushkin (1952), B.A.Alisov (1962) va boshqalar tomonidan keskin ontinental mo'tadil iqlim mintaqasining Janubiy Turon oblastiga kiritiladi. Qizilqum cho'li geografik o'rniga ko'ra subtropik mintaqaning materik ichkarisidagi cho'llar zonasiga, gipsometrik sathiga ko'ra tekislik cho'llariga, iqlim sharoitlariga ko'ra arid (quruq) cho'llarga, litologik-edafig va landshaft xususiyatlariga ko'ra gilli va qumli cho'llar tipiga mansubdir.

Qishda va bahorda shimol sharqdan nisbatan kuchli shamollar esib turadi ularning tezligi o'rtacha sekundiga 3-4 m atrofida. Lekin qishda va bahorning boshlarida shimoli – sharqdan nisbatan kuchli shamollar esib turadi. Qizilqum iqlimining shakllanishida g'arb va shimoli - g'arbdan keladigan mo'tadil kenglik havo massasi, shimoli-sharqdan keladigan Sibir antisikloni va janubdan keladigan quruq tropik havo massasining roli katta. Cho'lning shimolida Quyoshning nur sohib turishi yil davomida 2800 soatni tashkil etsa, janubida 2900 soatdan ham oshadi. Ochiq kunlar soni shimoldan janubga qarab 130 dan 170 kungacha ortib boradi. Quyoshni uzoq vaqt nur sohib turishi, bulutli kunlarning kam bo'lishi va hududning janubiy kengliklarda joylashganligi Quyosh radiatsiyasi miqdorini katta bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Shu boisdan bu yerda Quyoshdan keladigan yalpi yillik radiatsiya miqdori $140-150 \text{ kkal/sm}^2$ ni tashkil etadi. Qizilqumdagi iqlim elementlarining o'zgarishi so'nggi yillardagi tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, unda havo haroratining o'zgarishi barcha fasllarda ro'y berishi kutilmoqda. Masalan, Navoiy viloyatida haroratning bahorda $0,5-2^{\circ}\text{S}$, yozda $1,5-2,5^{\circ}\text{S}$, kuzda $0,5-2^{\circ}\text{S}$, qishda esa $1,5-3,5^{\circ}\text{S}$ ko'tarilishi kuzatilmoqda (Chub, 2002). Iqlimning ana shunday o'zgarishi (isishi) natijasida mo'tadil iqlim mintaqasi shimolga qarab 150-

200 km ga, balandlik mintaqasi bo'yicha 150-200 m ga siljishiga sabab bo'lishi mumkin bo'ladi. Iqlim o'zgarishini bashoratlanishiga ko'ra, 2015-2030 yillarda haroratining ko'tarilishi bir tomondan yaylov o'simliklarini hosildorligining oshishiga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchidan ob-havo sharoitini optimallashtiradi. V.E.Chub (2002) bashoratiga ko'ra iqlim o'zgarishi Qizilqumda yaylovlar hosildorligini ayrim hududlarda oshishi, aksincha ayrim hududlarda kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Hosildorlik kamayishi Qizilqumni shimoliy va g'arbiy rayonlariga to'g'ri keladi. Ayrim rayonlarda esa yaylov hosildorligi ko'tarilishi kutilmoqda. Bunga misol qilib janubiy-g'arbiy Qizilqumning Gazli va Nurota tog'larining janubiy g'arbiy hududlarini kiritishimiz mumkin bo'ladi. Shunday qilib, Qizilqumning iqlim sharoiti va iqlim elementlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, ular makon va zamonda kenglik va meridional yo'nalishlarda o'zgarib borib, arid landshaftlarni shakllanishida va rivojlanishida faol ishtirok etadi, zonal va regional tafovutlarni vujudga keltiradi.

Ichki suvlari

Qizilqum okrugi iqlimining quruqligi yog'in kamligi, yozgi haroratning yuqoriligi mumki bo'lgan bug'lanishning ko'pligi tufayli doimiy oquvchi mahalliy suvlari yo'q. Uning janubi-g'arbiy va shimoliy qismidan esa tranzit daryo Amudaryo, Sirdaryo kesib o'tadi, xolos. Qizilqum okrugining aksariyat regionlarida gidrografik to'r yaxshi rivojlanmagan va yer osti suvlari ham katta chuqurlikda yotadi. Shuning uchun Qizilqumning hozirgi landshaftlarini shakllanishi va rivojlanishida yer usti va yer osti suvlarining bevosita ta'siri sezilarli darajada emas. Chunki bu region iqlimining nihoyat quruqligi, kontinentalligi va ulkan pasttekislik markazida joylashganligi sababli faoliyat ko'rsatuvchi daryo va soylardan mahrum. Shuning uchun ham Qizilqum cho'lida yer usti va yer osti suvlari ta'sirida vujudga kelgan gidrogen yoki gidromorf landshaftlar – o'tloqzorlar, qamishzorlar, botqoqliklar deyarli uchramaydi. Ammo bu hududda gidrografik to'rning


rivojlanmaganligi va yer osti suvlarining katta chuqurlikda yotishi iqlim sharoitini yanada aridlanishiga sabab bo'ladi, arid landshaftlarning shakllanishiga va rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qizilqum janubiy qismi Zarafshon daryosining davomi bo'lgan va shimoli-g'arbiy yo'nalishda cho'zilib yotgan qadimiy Maxandaryo o'zani bilan, sharqiy qismi Sirdaryoning kenglik bo'ylab cho'zilgan qadimiy Daryosoy o'zani bilan kesilgan. Qadimiy quruq o'zanlar barxanlar va qator tepali qumlar bilan o'ralgan. Bahorning seryog'in paytlarida Maxandaryo va Daryosoy o'zanlari, Chuqurko'l, Maxanko'l va Parsonko'l botiqlari yomg'ir suvi bilan to'ladi. Lekin to'plangan yomg'ir suvlari uzoq vaqt saqlanmay, tezda bug'lanib va yerga singib ketadi. Maxandaryo va Daryosoy vodiylari hamda ko'l botiqlari vaqtincha bo'lsada namlik bilan ta'minlanganligi sababli ular qalin yulg'unzorlar bilan qoplanib, yulg'unli to'qay landshaftlarini hosil qiladi. Quruq o'zanlarda va pastqam botiqlarda sho'rxok va taqir landshaftlar ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Qizilqum cho'lida asosiy suv manbai bo'lib qadimdan yer osti suvlari xizmat qiladi. Qizilqum paleozoy past tog'lari, qumli va prolyuvial tekisliklariga nisbatan berk oqmas botiqlarida grunt suvlari yer yuzasiga ancha yaqin yotadi. Masalan, sho'rxok botiqda joylashgan Chakalak qudug'ining chuqurligi 5 m ni va suv bilan to'lishi 210 l/soatni tashkil etadi. Bu yerda parmalangan artezian qudug'i esa soatiga 520 litr suv chiqarib beradi. Jangeldidan g'arb tomondagi sho'rxok botiqda harakatdagi buloq mavjud bo'lib, u soatiga 1250 litr suv yetkazib beradi. Suvning ta'mi taxir-sho'r, ichimlik suv sifatida iste'mol qilishga yaroqsiz. Mahalliy aholi buloq suvidan poliz ekinlarini va chorva mollarini sug'orishda foydalanadi. Lekin bahorda qorlar eriganda, yomg'ir ko'proq yoqqanda Qizilqumning markaziy qismidagi past tog'larda vujudga keladigan vaqtli soylardan suv oqib, so'ngra ularning suvi qurib qoladi. Aksincha, Qizilqumda yer osti suvlari ancha ko'p. Okrugda gurunt suvlari hamma qismida turon svitasi qumliklarida uchraydi. Bu tur yer osri suvi, asosan, yog'inlardan to'yinadi, lekin

bug'lanish katta, sho'r minerallashish darajasi yuqori bo'lib tog'rida – to'g'ri ichishga yaramaydi. Rel'efi past yerlarda bu tur yer osti suvlaridan yaylavlarni suv bilan ta'minlashda foydalaniladi. Qalin barxan qumlar ostida 100 m chuqurliklarda chuchuk grunt suvi mavjud. Minerallashish darajasi 0,3-1,02 gg'l. Qoldiq tog'lar etaklarida chuchuk grunt suvlari katta miqdorda mavjud. Mezazoy davr yotqiziqlari va Poleogen davr yotqiziqlari orasida bosimli Artezan yer osti suvi zaxirasi mavjud. Bu suvlar nisbatan chuchuk bo'lib, ba'zi joylarda kovlanganda o'zi otilib chiqishi mumkin. Mingbuloq, Qoraxotin, Oyoqog'itma kabi botiqlarda burg'ilah paytida o'sha artezian suvlari o'zi otilib chiqqan. Har litr suvda minerallashish darajasi 1,0-3,0 grammgacha borishi mumkin. Qizilqum okrugida yer osti suvining dinamik miqdori sekundiga 58-60 m³ Markaziy Qizilqumda 11,0 m³g'sek, Qizilqum shimoli-sharqida va shimolida 4,0m³g'sek, Qizilqum shmoligarbida 43,6 m³ sekundga yetishi mumkin.

II-BOB.

2.1. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi

Qizilqum cho'lining joylashgan geografik o'rni, iqlimiy xususiyatlari, relefi noqulay bo'lganligi uchun bu yerda asosan cho'lga xos bo'lgan komponentlar tarqalgan.



Bu yerda cho'l iqlimining juda issiq va quruq ekanligi, yozda yog'in deyarli yog'maydi. Kunduzi havo harorati $+45^{\circ}$, $+50^{\circ}$ s gacha ko'tariladi, qum yuzasi $+80^{\circ}$ s gacha qiziydi. Bunday qattiq issiq va

qurg'oqchil iqlim. Siyrak o'simliklar sharotida tuproq hosil bo'lish jarayoni juda sust boradi. Okean sathidan 400-500 m blandlikgacha bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi va O'rta Osiyo maydoning katta qismiini ishg'ol qiladi. Cho'l tuproqlari xilma-xil bo'lib unda qumli cho'l, sur qo'ng'ir qumli cho'l, taqir va bo'z tuproqlar uchraydi. Cho'ldagi organik moddalar yuqori xarorat tufayli tez parchalanib, minerallashadi. Shuning uchun tuproqlar tarkibida chirindi ancha bo'ladi. Markaziy past tog'larda va shimoliy g'arbida (Nurota tog'larning etaklarida) toshloq cho'llarda sur-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Nisbatan reliefi pastroq bo'lgan yerlarda esa taqir va taqirli tuproqlar uchraydi. Bunday tuproqlarda chirindi juda kam bo'lib ular ko'pincha sho'rtob bo'ladi gumus miqdori 0.4-0.5 % gacha boradi. Tuproqning ustki qatlamida kalsiy karbanat, pastki qatlamida esa sulfat tuzlaridan gips to'planadi. Tarkibida chirindi miqdori 0.3-1 % gacha bo'lgan sur-qo'ng'ir tuproqli joylarda siyrak o't o'sadi, mayd mollar boqish imkoniyati vujudga keladi. Qizilqum okrugining shimoliy - g'arbida surqo'ng'ir tuproqlar tarqalgan bo'lib, nisbatan re'lefi past joylardan taqir va taqirli tuproqlar uchraydi. Bunday tuproqlarda chirindi kam bo'lib, gumus miqdori 0,4-0,5%. gacha boradi. Bunday tuproqdan dehqonchilikda foydalanish qiyin. Qumli cho'l tuproqlarida o'sadigan

o'simliklardan qora ko'll qo'ylari uchun yaylov sifatida foydalaniladi. Cho'llarda taqirlar ham uchraydi, ular gilli jinslardan tarkib topgan bo'lib, tarkibidagi chirindi miqdori 0.5-1 foizga yetadi. Taqirlar Quyi Quyi Zarafshon, janubiy Qizilqum xududlarida, shuningdek quruq deltalarda, qadimgi daryolarning ko'hna qayirlarida uchraydi. Taqirlarda o'simlik o'sishi qiyin, tuproq yuzasi qattiq yorilib-yorilib ketadi. Qizilqum cho'llarining yer osti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarida (Quyi Zarafshon, To'dako'l, Somonko'l) sho'r tuproqlar vujudga kelgan. Bunday joylarda yer osti suvi yer betiga chiqib bug'lanadi, tuproq tarkibida tuz ko'payadi. Cho'l mintaqasida yirik sho'rxoklardan dexqonchilikda foydalanib bo'lmaydi. Qizilqum cho'llarining daryo vodiylarida, qayir va deltalarida o'tloq va botqoq tuproqlar uchraydi. Cho'l mintaqasining okean sathidan 300-500 m balandlikdagi joylarida och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan. Och tusli bo'z tuproqning tarkibida 1-1.5 foizgacha chirindi bo'ladi. Sug'orib o'g'itlar solinsa unumdor tuproqqa aylanib, yaxshi hosil beradi. Quyi Zarafshon vodiylarida qadimiy obikor dehqonchilik qilinadigan joylarda vohalar vujudga kelgan. Bu yerdagi bo'z tuproqlar uzoq vaqt ishlov berilish natijasida madaniy tuproqlarga aylangan. Qizilqum okrugining chekkasidagi vohalarda ham qisman cho'l tuproqlari vujudga kelgan. Uchquduq, Zarafshon, Muruntov, Tomibuloq, Mingbuloq, Gazli kabi shahar hamda qishloqlardagina obikor dehqonchilikda foydalaniladi. Cho'lning ekin ekiladigan joylarida bunday madaniy tuproqlar madaniy tuproqlar voha tuproqlari deyiladi.

Qizilqum okrugining o'simlik qoplami siyrak. Nam yetarli bo'lgan bahor faslida cho'l mintaqasining manzarasi o'zgacha bo'ladi, bu vaqtda o'simliklar barq urib o'sib, cho'l yam-yashil libosga kiradi. Jazirama yoz issiqlari boshlanishi bilan cho'ldagi o'tlar sarg'ayib, qovjirab quriydi. Cho'lda sidirg'a o'simlik qoplami bo'lmaydi. Cho'l o'simliklari jazirama issiq va quruq iqlim sharoitiga moslashgan. Ularning ildizlari juda uzun, barglar mayda yoki butunlay bo'lmaydi. Shuning uchun



tanasiidagi nam kam bug'lanadi. Ba'zi bir o'simliklar qisqa, sernam va salqin muddatda o'z hayotini tugallashga ulguradi. Qumli cho'llarda selin, juzg'un, qora qandim, cherkez, quyonsuyak va illoq o'sadi. Qumlarda qora qandim va qizilcha butalari,

shuningdek saksovul uchraydi. Saksoul qumlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Sho'rxok joylarda jriq, yulg'un, sho'ra va shuvoq o'sadi. Gilli cho'llarda qum qiyog'i a qo'ng'irbosh uchraydi.

Qizilqum okrugining 3-5% maydonida **o'simliklar** deyarli o'smaydigan qumlar egallagan. Qolgan 95-97% maydoni u yoki bu darajada o'simliklar bilan qoplangan. Qizilqum okrugi cho'laga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uzoq davom etgan jazirama quruq va yoz sharoitiga moslashgan kserofit, psommofit va efemer turlidir. Qizilqum okrugi bahorda ko'k tusga kirib, efemer va efemeroid o'simliklari – rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, lolaqizg'aldoq, lola, boyg'alcha, chuchmoma, kovrak kabilar bilan qoplanadi. Lekin yozning boshlanishi bilan efemer va efemeroid o'simliklar sarg'ayib qurib qoladi, so'ngra o'z vegetasiyasini psammofit, kserofit tur o'simliklari davom ettiradi. Qizilqum okrugining mustahkamlashgan qumliklarida juzg'un, oq saksavul, quyonsuyak, qum akatsiyasi, qandim, selin kabi o'simliklar o'sadi. Qizilqumining markaziy qismidagi sur qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan qoldiq tog'larda va tog' etaklarida shuvoq, burgan, tereskan, toshburgan, saksovul o'sadi. Qizilqum okruguda taqirlar kam, ular marza qumlar orasidagi past joylarda uchraydi. Taqirlar bahorda suv bilan qoplanib, yozga borib suv bug'lanib ketib, qurib, usti qotib yorilib ketadi.



Qizilqum okrugining shorxok, sho'rtob va sho'rxok-botqoq tuproqlar tarqalgan botiqlaida qora saksovul, yulg'un, baliqko'z va boshqa bir yillik sho'ralar uchraydi. Taqir va taqirli tuproqlar mavjud bo'lgan yerlarda donasho'r, bir yillik sho'ralar o'sadi. Qizilqum cho'llarida qorako'l qo'ylari va tuya boqish uchun yaylov

sifatida foydalaniladi. Cho'lad foydali o'simliklar juda ko'p masalan: cherkez va isiriq tarkibida turli kaslliklarni davolaydigan alkaloidlar bor, sassiqkovrak tarkibidagi smoladan malham tayyorlanadi, uning ildizi kraxmalga boy. Ayrim o'simliklardan bo'yoq olinadi. Qizilqum cho'l mintaqasining hayvonlari xilma-xil bo'lib, ular cho'l sharoitiga moslashgan bo'z va sarg'ish rangda bo'ladi. Cho'llarda ba'zi hayvonlar butunlay suv ichmay yashaydi, ular o'zi istemol qiladigan o'simliklar tarkibidagi nam bilan qanoatlanadi. Cho'l hayvonlari jazirama issiqqa ham moslashgan, ko'pchilik hayvonlar chopqir, ko'zlar o'tkir bo'ladi. Cho'lda sudralib yuruvchi kaltakesaklardan agama, dumaloq bosh kaltakesak, gekkonlar yashaydi. Cho'llarda ilonlar ko'p. Qumlarda bo'g'ma ilonlar yashaydi, ular hashorat, kaltakesak va mayda kemiruvchilarni tutib yeydi. Tez yuguradigan, xatto saksovul va juzg'unlarga ham epchillik bilan chiqib oladigan o'qilonlar tanasining bir qismini tik ko'tarib tura oladi. Bundan tashqari cho'l mintaqasida qo'shoyoq, yumronqoziq kabi kemiruvchilar ko'p. Sut emizuvchilardan jayron, sayg'oq cho'l rangida bo'lib, ularni darhol payqab olish qiyin, ular juda sezgir, chopqirdir. Cho'lda qushlar nisbatan kam asosan xo'jasavdogar, boyqush, chumchuq,



to'rg'aylar yashaydi.
 Hashoratlardan qoraqurt
 inson uchun xavflidir.
 Cho'ldagi shuningdek chayon,
 falanga uchraydi. Endemik
 turga ega bo'gan
 xayvonlardan bu yerda taroq
 barmoqli qo'shoyoq,
 xo'jasavdogar kabi endemik
 vakillar mavjud. Qizilqum
 okrugining ko'p qismini qumli-
 cho'llar tashkil etib, unda
 kemiruvchilardan ingichka

oyoqli yumronqoziq, qum sichqoni, shalpanquloq, qo'shoyoqlar, toshbaqa, tipratikan kabilar yashaydi. Sudralib yuruvchilardan dumaloq boshli kaltakesak, agama, echkemar, o'qilon, qum bo'g'ma iloni, efa iloni (charx ilon) yashaydi. Qumli cho'llarda sut emizuvchilardan cho'l mushugi, jayron, xongul, sayg'oq, bo'ri, tulki, quyon uchraydi. Hashoratlardan esa chiyon, qoraqurt, tarantul, falang, chigirtka bor. Qizilqum okrugining Amudaryo sohillarida to'qayzorlar ham mavjud bo'lib, unda g'oz, o'rdak, qirg'ovul, to'ng'iz kabi hayvonlar bor. Qizilqum okrugida qushlardan xo'jasavdogar, yilqichi, tentakqush so'fito'rg'ay, yo'rg'a tuvaloq, qumchumchg'i kabilar uchraydi. Qizilqum okrugidagi Amudaryo sohillarida joylashgan to'qay landshafti va u yerdagi o'simlik hamda hayvonlarni (xongul, jayron, to'ng'iz, qirg'ovul, o'rdak, g'oz va bosh.) muhofaza qilish uchun Qizilqum qo'riqxonasi tashkil etilgan

b dalillar mavjud.1

2.2. Maktab ta'limida Qizilqum tabiiy geografik okrugiga oid mavzularning o'qitilishi

“Ta’lim to’g’risidagi qonuni”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bo’yicha (1997 yil) amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish, ta’lim muassalarida olib borilayotgan islohatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi yoshlarning ta’lim-tarbiyasi va ma’naviy dunyoqarshini milliy g’oyalar asosida shakllantirish muxim o’rin tutadi. Maktab ta'limida Qizilqum tabiiy geografik o'lkasi xaqidagi mavzu asosan 7-sinf tabiiy geografiysi darsligida o'tiladigan mavzu bo'lib, bunda asosan 7-sinf o'quvchilari Qizilqumning tabiiy geografik o'rni, chegaralari, reliefi, geologik tuzilishi kabi tabiiy geografik ma'lumotlarni o'rganadilar. Mazkur bilimlarni o'rganishda o'quvchilarga bir qancha metodlardan foydalangan xolda dars maqsadga muvofiqdir. Qizilqum tabiiy geografik o'lkasi maydoninig kattaligi, ichki tabiiy va iqtisodiy ijtimoiy xususiyatlaridagi tafovvutlari katta bo'lganligi bois maktab o'qituvchisi o'quvchilarga mavzularni xar xil mavzu va metodlardan samarali foydalanib dars o'tish kerak. Maktabda Qizilqum tabiiy o'lkasi mavzusini o'rgatishda o'quvchilarga puxta va chuqur bilim berish uchun o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi lozim. Buning uchun avvalo o'qituvchi o'qitishning samarador metodlarini va usullarini izlab topishga ko'plab harakat qilmog'i lozim. Ayniqsa ilmiy - texnika taraqqiy etgan hozirgi sharoitda o'quvchilarning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim hajmi nihoyatda ortib bormoqda. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar va fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan keng foydalanishi zarur. Qizilqum mavzusini o'qitishda 1) Geografiya nomlarni o'rganish; 2) Kartadagi joyni tasvirlash; 3)Karta bo'ylab sayohat; 4) Solishtirish. 5)Kontur karta bilan ishlash 6)Rasmlar bilan ishlash; 7) Texnika vositalari (diapozitiv, diafilm, kinofilm, kodoskop) bilan ishlash; 3) Hajmli qo'llanmalar (globus, telluriy, moket, kolleksiya, gerbary va h,k.) bilan ishlash; 4) Grafik tasvirlar (sxema, grafik, chizma) kabi ko'rgazmali qurollar kerak

bo'ladi. Maktab darsligida Qizilqumning geografik tuzilishi va relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, osimliklari va hayvonot dunyosi, kabi mavzulardan iborat. Ikkinchi bo'limining birinchi qismi O'zbekiston tabiiy geografiyasi deb nomlanib, unda respublikamizning geografik o'rni, chegaralari, maydoni, yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o'simlik, hayvonot dunyosi, tabiat boyliklari haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Ikkinchi bo'limning ikkinchi qismida endi "Tabiat komplekslari tavsifi" deb nomlanadi, atroflicha yoritiladi va O'zbekistonning tabiiy geografik o'lkalari, har bir o'lkaning iqlimi, suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi keng yoritiladi. Qizilqum tabiiy geografik o'lkasiga oid mavzuga jami ikki soat ajratilgan bo'lib, to'rtinchi chorakka to'g'ri keladi. Birinchi soatda o'lkaning geografik o'rni, yer yuzasi geologik tuzilishi va foydali qazilmalari haqida o'qitilib, bunda o'quvchilardan Qizilqum o'lkasining yer usti tuzilishini va o'ziga xos tomonlarini bilish, Surxondaryo o'lkasida nima uchun va qanday omillar ta'sirida quruq subtropik landshaft shakllanganligini ayta olish ko'nikmasini hosil qilish, o'lkaning tabiiy va siyosiy geografik o'rniga tavsif bera olish malakasiga ega bo'lish talab qilinadi. Ikkinchi soatda esa endi o'lkaning iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida bilim berilib, o'quvchilar o'lkaning iqlimi, asosiy daryolari, ularning to'yinishi va suv rejimi, yer osti suvlari, suv omborlari haqida bilishlari, Navoiy-Buxoro viloyatlarida esadigan shamollarning vujudga kelish sabablarini ayta olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Bu bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari uchun o'quvchilar darslikdagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda viloyatning yoki O'zbekiston respublikasining tabiiy xaritasi, tuproq, o'simlik va hayvonot, iqlim xaritalaridan, yettinsi sinf atlasidan kengroq foydalanishlari zarur. O'lkaga oid egallangan bilimlar chorak yakunida sakkizinchi nazorat ishi olish bilan yakunlanadi. Nazorat ishida Muruntov va Qorovulbozor konlaridan.....qazib olinadi, Quyi Zarafshonda..... tashlandiq ko'llar vujudga keladi, Termik depressiya

bu....., qishda Churukda havo harorati..... S ga ko'tarilganligi kuzatilgan, kabi gaplardan iborat geografik diktant olinadi. Yettinchi sinfda Qizilqum tabiiy geografik o'lkasining tabiiy geografik jihatlari o'rganilgan bo'lsa, sakkizinchi sinfda bevosita mavzuning davomi sifatida Navoiy-Buxoro viloyatining iqtisodiy - ijtimoiy xususiyatlari o'rganiladi. Geografiya o'qitishning ilmiy darajasini ko'tarishda ta'lim metodlari va vositalar bilan birgalikda sinfdan tashqari ishlarning ham ahamiyati katta. Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jaxon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning o'nib-o'sishi, komil inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir xaqiqatni hech-qachon unutmasligimiz kerak."-Prezidentimiz "Yuksak manaviyat yengilmas kuch" asarida ushbu qimmatli fikrlari kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasi, ma'naviy dunyosini shakllantirishda, vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda, mamlakatimizda ta'lim mussasalari oldiga qo'ygan asosiy dolzarb vazifalalardandir. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, kamol topayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya jarayonida halqimizning milliy qadriyatlari, a'nanalari, tarixiy va ilmiy asoslangan boy milliy meroslarimizga tayangan xolda olib boorish muxim ahamiyatga egadir. Jamiyatning qay darajada taraqqiy etganligi eng avvalo tizimning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu bevosita yoshlar tarbiyasida o'z aksini topadi.

XULOSA.

Turon tekisligidagi eng katta cho'llardan biri bo'lgan, Qizilqum saosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan bo'lib, Qizilqum okrugiga Qizilqum cho'lining O'zbekiston xududida joylashgan qismi kiradi. Qizilqum okrugining eng qadimiy quruqlikka aylangan qismi uning markaziy qismidagi platolardan ko'tarilib turgan poleozoy qoldiq tog'laridir. Bu tog'lar juda ham emirilib ketgan bo'lib, mutloq balndliklari 922 m dan oshmaydi. Qizilqum okrugi katta hududni egallagani uchun uning iqlimiy xususiyatlari shimoldan - janubga qarab o'zgarib boradi. Qizilqumning shimoliy qismi iqlimi asosan Markaziy Osiyo antitsikloni va garbdan keladigan siklonlar ta'sirida vujudga kelsa janubiy qismida iqlimning shakllanishida tropik havo massalari ta'siri ancha katta. Qizilqum okrugi iqlimining quruqligi yog'in kamligi, yozgi haroratning yuqoriligi mumki bo'lgan bug'lanishning ko'pligi tufayli doimiy oquvchi mahalliy suvlari yo'q. Qizilqum okrugining shimoliy - g'arbida sur - qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan, nisbatan re'lefi past joylardan taqir va taqirli tuproqlar uchraydi. Bunday tuproqlarda chirindi kam bo'lib, gumus miqdori 0,4-0,5%. gacha boradi. Qizilqum okrugining 3-5% maydonida o'simliklar deyarli o'smaydigan qumlar egallagan. Qolgan 95-97% maydoni u yoki bu darajada o'simliklar bilan qoplangan. Okrug zoogeografik xususiyati jihatdan Turon provinsiyasining Qizilqum zoogeografik rayoniga mansubdir. Okrug hayvonot olami Turkiston cho'llarga xos bo'lgan vakillar bilan tavsiflanadi. Qizilqum okrugi 5 ta tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi. Qizilqum iqlimining shakllanishida g'arb va shimoli - g'arbdan keladigan mo'tadil kenglik havo massasi, shimoli-sharqdan keladigan Sibir antisikloni va janubdan keladigan quruq tropik havo massasining roli katta. Cho'lining shimolida Quyoshning nur sohib turishi yil davomida 2800 soatni tashkil etsa, janubida 2900 soatdan ham oshadi. Ochiq kunlar soni shimoldan janubga qarab 130 dan 170 kungacha ortib boradi. Quyoshni uzoq vaqt

nur sochib turishi, bulutli kunlarning kam bo'lishi va hududning janubiy kengliklarda joylashganligi Quyosh radiatsiyasi miqdorini katta bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Shu boisdan bu yerda Quyoshdan keladigan yalpi yillik radiatsiya miqdori 140-150 kkal/sm² ni tashkil etadi. Qizilqumdagi iqlim elementlarining o'zgarishi so'nggi yillardagi tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, unda havo haroratining o'zgarishi barcha fasllarda ro'y berishi kutilmoqda. Masalan, Navoiy viloyatida haroratning bahorda 0,5-2⁰S, yozda 1,5-2,5⁰S, kuzda 0,5-2⁰S, qishda esa 1,5-3,5⁰S ko'tarilishi kuzatilmoqda (Chub, 2002). Iqlimning ana shunday o'zgarishi (isishi) natijasida mo'tadil iqlim mintaqasi shimolga qarab 150-200 km ga, balandlik mintaqasi bo'yicha 150-200 m ga siljishiga sabab bo'lishi mumkin bo'ladi. Iqlim o'zgarishini bashoratlanishiga ko'ra, 2015-2030 yillarda haroratining ko'tarilishi bir tomondan yaylov o'simliklarini hosildorligining oshishiga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchidan ob-havo sharoitini optimallashtiradi. V.E.Chub (2002) bashoratiga ko'ra iqlim o'zgarishi Qizilqumda yaylovlar hosildorligini ayrim hududlarda oshishi, aksincha ayrim hududlarda kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Hosildorlik kamayishi Qizilqumni shimoliy va g'arbiy rayonlariga to'g'ri keladi. Ayrim rayonlarda esa yaylov hosildorligi ko'tarilishi kutilmoqda. Bunga misol qilib janubiy-g'arbiy Qizilqumning Gazli va Nurota tog'larining janubiy g'arbiy hududlarini kiritishimiz mumkin bo'ladi. Turon pasttekisligining aksariyat regionlarida gidrografik to'r yaxshi rivojlanmagan va yer osti suvlari ham katta chuqurlikda yotadi. Shuning uchun Qizilqumning hozirgi landshaftlarini shakllanishi va rivojlanishida yer usti va yer osti suvlarining bevosita ta'siri sezilarli darajada emas. Chunki bu region iqlimining nihoyat quruqligi, kontinentalligi va ulkan pasttekislik markazida joylashganligi sababli faoliyat ko'rsatuvchi daryo va soylardan mahrum. Shuning uchun ham Qizilqum cho'lida yer usti va yer osti suvlari ta'sirida vujudga kelgan gidrogen yoki gidromorf landshaftlar – o'tloqzorlar, qamishzorlar, botqoqliklar deyarli uchramaydi. Ammo bu hududda gidrografik

to'ring rivojlanmaganligi va yer osti suvlarining katta chuqurlikda yotishi iqlim sharoitini yanada aridlanishiga sabab bo'ladi, arid landshaftlarning shakllanishiga va rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qizilqum janubiy qismi Zarafshon daryosining davomi bo'lgan va shimoli-g'arbiy yo'nalishda cho'zilib yotgan qadimiy Maxandaryo o'zani bilan, sharqiy qismi Sirdaryoning kenglik bo'ylab cho'zilgan qadimiy Daryosoy o'zani bilan kesilgan. Qadimiy quruq o'zanlar barxanlar va qator tepali qumlar bilan o'ralgan. Bahorning seryog'in paytlarida Maxandaryo va Daryosoy o'zanlari, Chuqurko'l, Maxanko'l va Parsonko'l botiqlari yomg'ir suvi bilan to'ladi. Lekin to'plangan yomg'ir suvlari uzoq vaqt saqlanmay, tezda bug'lanib va yerga singib ketadi. Maxandaryo va Daryosoy vodiylari hamda ko'l botiqlari vaqtincha bo'lsada namlik bilan ta'minlanganligi sababli ular qalin yulg'unzorlar bilan qoplanib, yulg'unli to'qay landshaftlarini hosil qiladi. Quruq o'zanlarda va pastqam botiqlarda sho'rxok va taqir landshaftlar ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Qizilqum cho'lida asosiy suv manbai bo'lib qadimdan yer osti suvlari xizmat qiladi. Qizilqum paleozoy past tog'lari, qumli va prolyuvial tekisliklariga nisbatan berk oqmas botiqlarida grunt suvlari yer yuzasiga ancha yaqin yotadi. Masalan, sho'rxok botiqda joylashgan Chakalak qudug'ining chuqurligi 5 m ni va suv bilan to'lishi 210 l/soatni tashkil etadi. Bu yerda parmalangan artezian qudug'i esa soatiga 520 litr suv chiqarib beradi. Jangeldidan g'arb tomondagi sho'rxok botiqda harakatdagi buloq mavjud bo'lib, u soatiga 1250 litr suv yetkazib beradi. Suvning ta'mi taxir-sho'r, ichimlik suv sifatida iste'mol qilishga yaroqsiz. Mahalliy aholi buloq suvidan poliz ekinlarini va chorva mollarini sug'orishda foydalanadi.

Men **BMI** yozish davomida ko'rgina bilimlarga ega boldim. Kelgusida, o'qish davomida rivojlantirib amaliyot davrida foydalanib boraman.

FOYDALANILGAN ADABIYORLAR.

1. Alibekov L. A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Samarqand 2006 yil.
2. Alibekov L.A. S.A.Nishonov. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan rasional foydalanish. Toshkent "O'qituvchi"1983 y
3. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. (Oliy o'quv yurtlari geografiya yo'nalishi talabalari uchun qo'llanma). Toshkent, O'qituvchi, 1996 yil
4. Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. (O'quv qo'llanma) Toshkent, O'qituvchi. 2002 yil.
5. Mo'minov. O. P.Baratov. M.Mamatqulov. R. Rahimbekov Ozbekiston tabiiy geografiyasi. 7- sinf maktab darsligi. Toshkent. "Oqituvchi" 2000 yil.
6. Nig'matov. N. Ekologiya nima? Toshkent 2006 yil.
7. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1-12 tomlar.
8. O'rta Osiyoda cho'llanish muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand. 2000 yil.
9. Qoriyev. M.V., A. V. Xisamov. P. Baratov. va boshq. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent. "Oqituvchi" 1965 yil.
10. G'ulomov P. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O'zMU, 2000 yil.
11. 7- sinf atlas. Toshkent. "Oqituvchi" 2011 yil.
- 12.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
QO’QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
GEOGRAFIYA O’QITISH METODIKASI KAFEDRASI

8-SINF IQTISODIY GEOGRAFIYA KURSINI MODULLI
O’QITISH TEXNOLOGIYASI.

Mavzusidagi

BMI

Bajaruvchi:

Rahmonov F.

Ilmiy rahbar:

Nazarov H.

QO'QON- 2017

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3-4
I BOB	O'ZBEKISTON AHOLISINING HUDUDIIY DEMOGRAFIK TAVSIFI.	5-27
I.1	O'zbekiston aholisining umumiy geografik tavsifi.....	5-19
I.2	O'zbekiston aholisi demografik rivojlanishining davriy manzarasi.....	20-26
II BOB	VILOYATIDA AHOLI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	50-53
II.1	Viloyat aholisi demografik rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar.....	50-53
	XULOSA.....	54-56
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	57-58

KIRISH.

Har qanday mamlakatda aholi soni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning yetakchi omili sifatida talqin qilinadi. Aholi sonining miqdoriy ko'rsatkichi mamlakatning ichki resurslaridan eng muhimidir. Binobarin aholi sonining optimal darajasi va uning tarkibiy muvofiqligini ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Aholining miqdoriy o'sishi va unga ta'sir etuvchi omillar mamlakatlar aholisining demografik rivojlanishi deb ataladi.

Hududlar aholisining demografik rivojlanishi ko'pgina omillarga bog'liqdir. Bunday omillar, aholimning tarixiy rivojlanish an'anasi, etnografik xususiyatlari, turmush tarzi va iqtisodiy farovonlik hamda ijtimoiy muhitdir. Aynan ushbu omillarning turli davrlarda aholi rivojlanishiga ta'sirini o'rganish **BMI**ish mavzusining mazmunini tashkil etadi. Bu ishni bajarishdan maqsad asosan mamlakatda aholining miqdoriy o'sish dinamikasi va uning davriy rivojlanish jarayoniga geografik nuqtai nazardan Jizzax vilyaoti misolida baho berishdir. Zero mamlakatimiz shu jumladan viloyat aholisi XX asr davomida rivojlanishga turli darajada ta'sir etuvchi bir qancha hodisalarni kechirdi. Xususan, Turkistondagi ruslar istilosi, birinchi jahon urushi, oktyabr to'ntarilishi va hududda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, kollektivlashtirish, ommaviy repressiya, ikkinchi jahon urushi, paxta monokulturasining qaror topishi, cho'llarni o'zlashtirish, qayta qurish va nihoyat mustaqillik davrining boshlanishi kabi hodisalar aholining miqdoriy o'sishini belgilovchi tabiiy va mexanik ko'payishiga kuchli ta'sir etuvchi omillardir. Ushbu davrlar davomida aholi son jihatidan qay darajada va tarzda

ko‘payganligini baholi qudrat tahlil etish va baho berish uchun bir qancha maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- O‘zbekiston aholisiga umumiy geografik tavsif berish;
- Mamlakat aholisining miqdoriy o‘shishini tarixiy nuqtai nazardan izohlash;
- Aholi miqdoriy o‘zgarishlarining davriy manzarasini tasvirlash;
- Yuqorida bajarilgan tahlillar asosida Jizzax viloyati aholisining umumiy geografik xususiyatlarini baholash;
- Viloyat aholisining davriy rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillarni geografik jihatdan tahlil qilish.

Ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish taqozo etiladi:

- ✓ Mamlakat aholisining umumiy geografik xususiyatlarini tahlil qilish.
- ✓ Mamlakatda tarixiy davrlarda aholi soniga ta’sir etuvchi demografik jarayonlar tahliligi amalga oshirish;
- ✓ Viloyat aholisining hududiy rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi demografik jarayonlarni tahlil etish;
- ✓ Viloyatda aholining miqdoriy o‘zgarishlarini davriy tahlil etish hamda hududiy geografik tavsiflash.

Ko‘zda tutilayotgan maqsad va vazifalar geografik qiyoslash, tarixiy, statistik tahlil, tavsifiy usullardan foydalanilgan holda bajariladi.

Ish kirish, xulosa, 3 ta asosiy bob kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, adabiyotlar va materiallar tahlili asosida chizmalar, xaritalar, diagrammalar bilan to‘ldiriladi.

I BOB. O‘ZBEKISTON AHOLISINING HUDUDIIY DEMOGRAFIK TAVSIFI.

I.1. O‘zbekiston aholisining umumiy geografik tavsifi.

O‘zbekiston respublikasi ko‘p millatli mamlakatlardan biri bo‘lib, 120 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishadi. Jami aholisi 30 mln 500 ming kishidan ortiq(2013). Aholisining soni bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o‘rinda turadi. (MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi). Respublikada Markaziy Osiyo aholisining 43% istiqomat qiladi.

Mamlakat aholisining son jihatidan ko‘payishi bevosita undagi aholi joylashuvining tarixiy xususiyatlari, rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq.

Xususan, O‘zbekiston aholisi ko‘payishida rus istilosi, sobiq ittifolq davri, shu jumladan sobiq sovet hokimiyati o‘rnatilgan ilk yillar, (fuqarolar urushi va iqtisodiy inqiroz) ikkinchi jahon urushi davri kabi aohida tarixiy davrlar hamda mustaqillik yillarining zamonaviy iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish davri kabi bosqichlarni ajratish mumkin.

O‘zbekiston aholisining miqdoriy ko‘payish dinamikasi aholi ro‘yxatlari ma’lumotlari hamda demografik rivojlanishning joriy statistikasi asosida tahlil qilinadi.

Oktyabr to'ntarilishiga qadar O'zbekiston hududida aholi sonining o'sish jadalligi yuqori bo'lmagan. 1897-1917 yillar davomida aholi soni yillik o'rtacha 27 ming kishidan ko'paygan, yillik o'rtacha o'sish jadalligi esa 0,65% dan iborat bo'lgan. Bu holat o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatiga mos keladi. Tug'ilish yuqori darajada bo'lishi bir vaqtda o'lim ham o'ta yuqori darajada bo'lgan, natijada aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichlar juda past bo'lgan. Sobiq ittifoq davrida ijtimoiy – iqtisodiy vaziyat o'zgargan va aholi sonining o'sish dinamikasi bunda sotsialistik rivojlanish bazasiga tayanadi. Sotsialistik tuzum o'rnatilishining ilk bosqichlarida va keyingi yillarda aholi soni siyosiy beqarorlik, ochlik va tashqi migratsiya hamda ikkinchi jahon urushi tufayli juda sekin ko'paygan bo'lsa, keyinchalik tabiiy o'sishda jadallik kuzatiladi.

O'zbekiston aholisining dinamik rivojlanishini tarixiy nuqtai nazardan bir qancha davrlarga bo'lish mumkin, bu davrlar aholi soniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan belgilanadi.

1-jadval

O'zbekiston hududida aholi soni dinamik ko'payishining tarixiy davrlari.

Davrlar nomi	yillar	Davrdagi o'rtacha aholi soni (ming kishi)	O'rtacha yillik tabiiy o'sish%
Rus istilosi davri	1897-1917	4150	0,6
Oktyabr to'ntarishidan 2-jahon urushiga qadar	1917-1940	4525	0,9
2-jahon urushi davri	1940-1945	5874	-1,1
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar	1945-1989	14643	2,9

Mustaqillik yillari	1990 dan hozirgi kunlar	25489	1,8
---------------------	-------------------------	-------	-----

O‘zbekiston huuddidagi aholi statistikasi asosan sobiq ittifoq davrida aniq olib borilganligi uchun undan oldingi davr aholi soni va dinamikasi haqidagi ma’lumotlar ko‘proq taxminiy xarakterdadir. Lekin tarixiy ma’lumotlar va keyingi aniq statistik materiallar asosida shuni aytish mumkinki, 18 asr oxiri va shu kunlarga qadar mamlakat hududida aholi 12 barobardan ortiq ko‘paygan. Xususan, O‘zbekiston hududida birinchi aholi ro‘yxati 1897 yilda o‘tkazilgan bo‘lsa, bu tadbir mamlakatimizning hozirgi hududini to‘liq qamrab olmagan edi. Keyingi aholi ro‘yxatlari ham turi yillarda, respublika hududi endi shakllanayotgan davrlarda o‘tkazilgan. Sobiq ittifoq yillarining so‘nggi aholi ro‘yxati 1989 yilda o‘tkazilgan va bunda aholi soni 19880 ming kishi deb ko‘rsatilgan edi. Ayni kunda aholi soni 30 mln dan oshib ketganligini hisobga olinsa, aholi soni ushbu yillar oralig‘ida 12 mln kishiga ortganligi ko‘rinib turibdi, bu yiliga o‘rtacha 480 ming kishidan to‘g‘ri keladi va tabiiy o‘sish sur‘ati 1,6 % ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi hududiy joylashuvi jihatdan notekis taqsimlangan. Bu holat tabiiy sharoitning turil tafovutlari, aholining tarixiy joylashuvi va mamlakat hududining iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

Aholi qadimdan daryo vodiylarida sug‘orma dehqonchilik qilish mumkin bo‘lgan hududlarda va chorvachilik uchun sharoit mavjud joylarda yashab kelgan. XX asrgacha respublika aholisi asosan Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida joylashgan, ayni vaqtda bu joylarda yirik vohalar – Farg‘ona vodiysi, Zarafshon vodiysi, Toshkent mintaqasi, Xorazm vohasi kabi iqtisodiy rivojlangan, aholi punktlarining izchil tizimi shakllangan mintaqalar mavjud. Bu joylarda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon kabi qadimiy va dunyoga mashhur shaharlar vujudga kelgan.

Sobiq ittifoq davrida yangi yerlarni qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida o‘zlashtirilishi va foydali qazilmalarni qazib olish sanoatining

rivojlantirilishi natijasida mamlakat aholisi cho‘l, dasht va tog‘li hududlarga o‘rnasha boshladi. Bu davrda Mirzacho‘l va Qarshi cho‘llari, Qoraqalpog‘iston hududidagi qo‘riq yerlar, Toshkent viloyatining tog‘ oldi va tog‘li hududlari, Buxoro va Navoiy viloyatlarining cho‘l va dasht hududlari va boshqa joylar o‘zlashtirildi.

Foydali qazilmalarni sanoat darajasida qazib olish yo‘lga qo‘yildi. Bu foydali qazilmalarning asosiy qismini rangli metallar, oltin va gaz tashkil etadi. Ushbu sanoatning rivojlanishi tog‘ va tog‘ oldi hududlarida hamda cho‘llarda yangi - Angren, Olmaliq, Navoiy, Zarafshon, Gazli, Uchquduq va boshqa shaharlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, bu yangiliklar respublika aholisi joylashuviga juda katta o‘zgartirish kiritgani yo‘q. Aholining asosiy qismi mamlakatning iqtisodiy rivojlangan mintaqalari, Farg‘ona, Zarafshon, Toshkent hududlarida yashaydi. Tekislik vohalarida aholi zichligi mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini tashkil etadigan 61,3 kishi /km² ko‘rsatkichidan 5-10 baravar yuqoridir. Andijon viloyati aholi zichligi 581,3 kishi/km², Farg‘onada 444,4 kishi/km² dan ortiq, Toshkent viloyatida Toshkent shahri bilan birga 303,1 kishi / km², Namangan viloyatida 296,6 kishi/km², Xorazmda 255,1 kishi/km² ni tashkil etadi.

Cho‘l va dasht hududlarida aholi juda siyrak joylashgan. Xususan, Navoiy viloyatida aholi zichligi 7,4 kishi/km² ni, Qoraqalpog‘istonda 9,6 kishi/km² ni tashkil qiladi. Tog‘li hududlardagi aholi zichligining pastligi respublikada aholining hududiy taqsimotidagi tafovutlarni yanada ochiq ko‘rsatadi.

O‘zbekiston aholisining hududiy taqsimotida uchta asosiy mintaqa ajralib turadi: Farg‘ona, Zarafshon va Toshkent. Ushbu hududlarda 17,9 mln kishi, yoki respublika aholisining 65,2% i yashaydi. SHu jumladan, Farg‘ona mintaqasida (Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarida)28,1%, Zarafshon mintaqasida (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari) 20,0%, Toshkent mintaqasida (Toshkent viloyati va Toshkent shahri) 17,1% aholi istiqomat qiladi.

Fargʻona vodiysi Oʻzbekistonning aholisi eng zich hududi sifatida ajralib turadi. Bu yerda aholining oʻrtacha zichligi 418,3 kishi / km² ni tashkil qiladi. SHuningdek, aholi zichligining yuqori koʻrsatkichi Toshkent mintaqasida qayd etiladi, 303,1 kishi/km².

Oʻzbekistonning aholi nisbatan zich joylashgan mintaqasi sifatida tarkibida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati boʻlgan Janubiy mintaqani koʻrsatish mumkin. Bu hududda 4,5 mlnga yaqin kishi yashaydi, bu respublika aholisining 16,6% ini tashkil etadi. Mintaqada aholi zichligi 94,4 kishi/km² boʻlib, respublika oʻrtachasidan 1,5 baravar yuqoridir.

Tarkibida Jizzax va Sirdaryo viloyatlari boʻlgan Mirzachoʻl mintaqasi aholisining juda siyrak joylashganligi bilan ajralib turadi. Mintaqada 1,8 mln kishi, yoki respublika aholisining 6,5% i istiqomat qiladi. Taʼkidlash joizki, bu hududda aholi siyrak joylashuvining asosiy sababi Sirdaryo viloyatida aholi sonining kamligidir. Bu viloyat aholisining respublika aholisi sonidagi ulushi 2,5% ni tashkil qiladi.

Aholi joylashuvidagi notekislik ayniqsa, shahar aholisiga xosdir. 2009 yilda qabul qilingan qishloq baʼzi qishloq aholi punktlariga shahar posyolkalari maqomini berish toʻgʻrisidagi qaror amalga oshganidan soʻng respublikada shahar aholisining salmogʻi va ulushida umumiy va mintaqaviy jihatdan katta oʻzgarish sodir boʻldi. 2009 yilgacha respublika shahar aholisining 1/3 qismi (32,7%) Toshkent mintaqasida toʻplangan edi, 2009 yildan bu koʻrsatkich 27% ga tushdi va shahar aholisining salmogʻi boʻyicha Fargʻona mintaqasi oldinga oʻtdi, bu mintaqada shahar aholisining salmogʻi 31% dan koʻpni tashkil qiladi. Ayni vaqtda Toshkent shahrida respublika shahar aholisining 15,4% i yashaydi.

Aytish mumkinki, Toshkent shahrining respublika shahar aholisi miqdoridagi salmoqli ulushi soʻnggi 10 yilda son jihatidan deyarli oʻsmaganligiga qaramay, bundan keyingi yillarda ham saqlanib qolaveradi.

Bugungi kunda Fargʻona mintaqasida shahar aholisining soni 4,5 mln kishini tashkil qiladi. Fargʻona mintaqasi 2009 yilgacha qishloq aholisi salmogʻining

yuqoriligi bilan ajralib turgan va mintaqada 5,1 mln qishloq aholisi yashagan, bu respublika qishloq aholisining 30% dan ortiqrogʻini tashkil etgan, 2009 yildan soʻng bu koʻrsatkich boshqa mintaqalardan katta farq qilmaydigan boʻldi, 2009 yilda qishloq aholisi respublika qishloq aholisining 23% ni tashkil etdi. Bu respublika boʻyicha ikkinchi oʻrindagi koʻrsatkichdir

2009 yilgacha qishloq aholisi miqdorining koʻpligi boʻyicha ikkinchi mintaq Zarafshon mintaqasi boʻlib, bu yerda 3,8 mln qishloq aholisi, yoki respublika qishloq aholisining 22,2% i istiqomat qilgan. 2009 yildan mintaq qishloq aholisining respublikadagi ulushi boʻyicha birinchi oʻringa chiqib qoldi va 24,8% ni tashkil etdi. Mintaqadagi shahar aholisining miqdori 2009 yilgacha 1,5 mln kishi yoki, Oʻzbekiston shahar aholisining 15,9% ini tashkil etgan boʻlsa, 2009 yilda shahar aholisi 2,1 mln kishidan oshdi, lekin respublikadagi ulushi 15,2% ga tushdi.

Janubiy mintaqadagi qishloq aholisining miqdori 3,5 mln kishidan 2,7 kishiga tushdi, lekin respublika qishloq aholisidagi ulushi saqlanib qoldi, yaʼni respublika qishloq aholisining 20% ini tashkil qiladi. Ushbu hududda shahar va shahar posyolkalarining aholisi ancha kam boʻlib, 983 ming kishi yashar edi va bu respublika shahar aholisining 10,3% ini tashkil qilgan, 2009 yilda shahar aholisining soni 1,8 mln kishidan oshdi va respublika shahar aholisidagi ulushi 13% dan koʻtarildi.

SHahar va qishloq aholisining eng past ulushi Mirzachoʻl mintaqasiga tegishli boʻlib qolmoqda, 2009 yilgacha qishloq aholisining 7,1%i, yoki 1,2 mln kishi va shahar aholisining 5,5% i, yoki 530,8 ming kishi yashashi haqidagi koʻrsatkichlar birmuncha oʻzgarganligiga qaramay umumiy ulushida oʻzgarish sezilmaydi, yaʼni 2009 yilda qishloq aholisining soni 990,3 ming kishi boʻlgani holda respublika qishloq aholisidagi salmogʻi 7,4% ni, shahar aholisi 811,4 ming kishini tashkil etgan respublika shahar aholisidagi ulushi esa 5,6% ni tashkil etgan. .

Respublika mintaqalari aholisi dinamikasining keyingi 40 yildagi (1970-2009) tahlili shuni koʻrsatadiki, aholi zichligi barcha mintaqalarda ancha oʻsgan. Aholi zichligi ortishining eng yuqori darajasi Janubiy mintaqada kuzatiladi, aholi

zichligi 29.7 kishi/km² dan, 94,4 kishi/km² gacha ortgan, ya'ni 3.5 baravardan ortiq darajani ko'rsatadi. Mirzacho'l mintaqasida aholi zichligi 26,7 kishi/km² dan, 70,6 kishi/km² gacha ortgan, bunda 3 baravar o'sish kuzatiladi.

O'zbekistonda aholi eng gavjum bo'lgan Farg'ona mintaqasida aholi zichligi 418,3 kishi/km² ni tashkil qiladi, bunda 249,7 kishi/km² ga ko'payganligi qayd etiladi va bu o'sish 2,3 martani tashkil etadi. Toshkent mintaqasida aholi zichligi 119,7 kishi/km² ga ortgan, ya'ni 1,6 martaga oshib, 2009 yilda 303,1 kishi/km² ni tashkil qiladi. (1-rasm).

Ko'rib o'tilgan yillarda O'zbekiston shahar aholisining hududiy taqsimotida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Deyarli barcha mintaqalarda shahar aholisining umumiy ulushi, respublika shahar aholisi salmog'ida ko'tarildi, faqatgina Toshkent mintaqasida 1970 yilda 45,7% dan 2009 yilda 27,3% ga tushdi.

Shahar aholisi salmog'ining ortishi respublika shahar aholisi salmog'ida Janubiy mintaqada sezilarli bo'lgan. Bu mintaqada shahar aholisining ulushi respublika miqyosida ushbu yillar ichida 2 baravarga, ya'ni 5,5% dan 13,1% gacha o'sdi. 2009 yilgi o'zgarishdan so'ng Farg'ona mintaqasi shahar aholisi ulushida o'sish kuzatiladi, bu 21,7% dan 31,5% gacha o'sishni tashkil etadi. O'zbekiston aholisining hududiy joylashuvi mintaqalar bo'yicha hozirgi kungacha hududlarning tabiiy geografik sharoiti, xo'jalikning ixtisoslashuvi va rivojlanish darajasining mintaqaviy xususiyatlariga muvofiq ravishda shakllangan. Binobarin, kelajakda aholi hududiy taqsimotining boshqacha tarzda rivojlanishi kutilmaydi.

O'zbekiston aholisining mintaqalar bo'yicha taqsimoti.

2-jadval

Mintaqalar	Hududi ming km ²	Aholi soni 2009 yil		SHu jumladan				SHahar aholisining salmog‘i %	Aholi zichligi kishi/km ²
				SHahar aholisi		Qishloq aholisi			
		Ming kishi	%	Ming kishi	%	Ming kishi	%		
I. Toshkent mintaqasi	15,6	4728,6	17.1	3484,3	27,37	1274,3	9,5	73,6	303,1
1. Toshkent shahri	0,3	2206,0	8.0	2206,0	15,4	-	-	100	7353,3
2. Toshkent viloyati	15,3	2522,6	9,1	1278,3	8,97	1274,3	9,5	50,6	164,8
II. Farg‘ona mintaqasi	18,5	7739,2	28.0	4549,2	31,52	3190,0	23,8	58,7	418,3
1. Andijon viloyati	4,3	2499,9	9,0	1338,9	9,4	1161,0	8,7	53,5	581,3
2. Namangan viloyati	7,4	2217,2	8,0	1434,1	10,07	783,1	5,8	64,6	299,6
3. Farg‘ona viloyati	6,8	3022,1	11,0	1776,2	12,05	1245,9	9,3	58,7	444,4
III. Zarafshon mintaqasi	168,1	5489,7	19.7	2179,3	15,24	3310,4	24,8	39,6	32,6
1. Samarqand viloyati	16,8	3061,6	11,0	1145,8	8,04	1915,8	14,4	37,4	182,2
2. Buxoro viloyati	40,3	1588,8	5,7	616,8	4,3	972,0	7,3	38,8	39,4


3.	Navoiy viloyati	111,0	839,3	3,0	416,7	2,9	422,6	3,1	49,6	7,5
IV.	Mirzacho'l mintaqasi	25,5	1801,7	6,5	811,4	5,69	990,3	7,4	45,0	70,6
1.	Sirdaryo viloyati	4,3	703,4	2,5	290,7	2,04	412,7	3,1	41,3	163,5
2.	Jizzax viloyati	21,2	1098,3	4,0	520,7	3,65	577,6	4,3	47,4	51,8
V.	Quyi Amudaryo mintaqasi	172,6	3146,5	11,3	1338,5	9,4	1808,0	13,7	42,5	18,2
1.	Xorazm viloyati	6,0	1530,8	5,5	523,9	3,68	1006,9	7,5	34,2	255,1
2.	Qoraqalpog'iston R.	166,6	1615,7	5,8	814,6	5,72	801,1	6,2	50,4	9,6
VI.	Janubiy mintaq	48,7	4597,4	16,6	1873,0	13,15	2724,4	20,4	40,7	94,4
1.	Qashqadaryo viloyati	28,6	2563,6	9,3	1116,8	7,84	1446,8	10,8	45,3	89,6
2.	Surxondaryo viloyati	20,1	2033,8	7,3	756,2	5,31	1277,6	9,6	37,1	101,1
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami		449,0	27533,1	100,0	14235,7	100,0	13297,4	100,0	51,7	61,3

O'zbekiston mintaqalarida aholi miqdorining dinamik o'zgarishi

3-jadval

mntaqalar	1970 yil			1989 yil			2009 yil		
	Respublika aholisining umumiy salmog'ida %		Aholi zichligi kishi/km ²	Respublika aholisining umumiy salmog'ida %		Aholi zichligi kishi/km ²	Respublika aholisining umumiy salmog'ida %		Aholi zichligi kishi/km ²
	Barcha aholi	SHahar aholisi		Barcha aholi	SHahar aholisi		Barcha aholi	SHahar aholisi	
Toshkent mintaqasi	24,2	45,7	183,4	21,3	37,5	271,5	17,1	27,3	303,1
Farg'ona mintaqasi	27,4	21,7	168,6	26,9	22,4	279,0	28,0	31,5	418,3
Zarafshon mintaqasi	19,5	15,7	13,8	19,7	16,3	23,5	19,7	15,2	32,6
Mirzacho'l mintaqasi	5,8	3,3	26,7	6,6	5,0	51,4	6,5	5,6	70,6
Quyi Amudaryo mintaqasi	10,7	8,1	7,3	11,2	10,7	13,0	11,3	9,4	18,2
Janubiy mintaq	12,4	5,5	29,7	14,3	8,1	57,9	16,6	13,1	94,4
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha.	100,0	100,0	26,4	100,0	100,0	44,5	100,0	100,0	61,3

1-rasm



Mamlakatda tug‘ilishning yuqori darajasi aholi yosh tarkibida yoshlarning salmog‘ining ko‘p bo‘lishini ta‘minlaydi. Respublika aholisining umumiy tarkibida 30 yoshgacha bo‘lganlar 60% dan ko‘prog‘ini tashkil etadi. So‘nggi yillardagi tug‘ilishning pasayish hodisasi mamlakat yosh strukturasida o‘z aksini topadi. Bu aholi tarkibida 15 yoshgacha bo‘lganlarning kamayib borishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonning zamonaviy yosh va jins tarkibida yoshlar katta ulushga ega. 30 yoshgacha bo‘lganlar ulushi 62,1% ni 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi 33,3%, 16-29 yoshgacha bo‘lganlar esa 28,8% ni tashkil etadi. Jins tarkibida 30-34 yoshlilar guruhida erkaklar, qolgan yosh guruhlarida esa ayollar soni ustunlik qiladi.

4-jadval

O‘zbekiston aholisining jins va yosh bo‘yicha tarkibi

	2006		2007		2008		2009	
	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
jami	13167,6	13145,1	13338,2	13325,6	13536,9	13535,3	13760,8	13772,6
SHu jumladan yosh guruhlar bo‘yicha:								
0-2	753,7	800,3	777,5	824,6	811,0	860,4	866,2	918,4
3-5	745,8	784,1	733,6	777,4	747,6	792,8	748,7	794,1
6-7	515,6	540,9	504,4	529,8	489,7	515,6	492,4	520,4
8-15	2485,5	2594,1	2427,3	2535,7	2348,7	2459,7	2271,5	2381,7
16-17	610,9	632,3	615,4	640,7	645,2	667,3	654,3	676,8
18-19	622,1	636,5	620,0	635,1	606,8	627,1	611,8	635,9
20-24	1333,5	1348,7	1393,2	1411,3	1449,2	1470,5	1490,4	1519,0
25-29	1091,5	1103,3	1115,4	1129,0	1153,9	1167,3	1195,5	1208,2
30-34	971,0	979,6	986,8	998,7	996,4	1003,5	1016,0	1019,5
35-39	853,2	818,5	873,7	845,1	899,7	881,2	914,0	908,8
40-49	1534,9	1468,1	1572,9	1479,2	1597,8	1518,8	1620,8	1534,6
50-59	799,9	751,9	863,9	812,4	925,8	870,9	1002,3	945,2
60-69	428,2	395,7	417,1	383,3	417,8	385,4	417,5	384,3
70 va yuqori	424,8	291,1	437,0	305,3	447,3	314,8	459,4	325,7

O‘zbekiston hududida qadimdan turli millatlar va elatlarning o‘zaro aloqada va hamkorlikda yashashlari uchun tarixiy sharoit yaralgan. Bu birinchi navbatda hududning geografik o‘rni bilan bog‘liq bo‘lib, hudud - Eron, Xitoy, Hindiston

kabi qadimiy va yirik davlatlarning o‘zaro siyosiy munosabatlarida hamisha markaziy o‘rin tutgan. SHuning uchun ham eng katta istilochilik urushlar birinchi navbatda ushbu hududga ta’sir ko‘rsatib kelgan. Bunday hodsalar, shu bilan birga Buyuk Ipak yo‘li kabi yirik savdo yo‘llari hududga turli xalq vakillarining kirib kelishini abiiy holga aylantirib qo‘ygan. Ko‘chmanchi xalqlarning o‘troqlashuvi, yirik shaharlarning bunyod bo‘lishi, tabiiy sharoitning qulayligi mintaqada yagona umumiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarning shakllanishiga olib keldi. Ma’lumki mintaqada turkiy tilning ta’sir kuchli bo‘lib, hududga kirib kelgan bshqa xalqlarning o‘zaro so‘zlashuv tilini belgilab bergan.

Turkistondagi ruslar istilosi, bu hududga Yevropaga xos millat vakillarining ham kirib kelishini ta’minladi va sobiq ittifoq davrida bu holat o‘ta kuchli xarakterga ega bo‘ldi.

Ayni vaqtda O‘zbekiston respublikasining ko‘p millatli davlat sifatida namoyon bo‘lishida ayni holat katta rol o‘ynagan.

Mamlakatning asosiy tarkibini tashkil etuvchi millat o‘zbeklar bo‘lib, sobiq ittifoq davrida milliy tarkibdagi salmog‘i bo‘yicha ruslarning ulushi ikkinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, mustaqllik yillarida manzara birmuncha o‘zgardi. Mahalliy millatlarning salmog‘i ortib, yevropa millatiga xos kishilar ulushi tobora kamaymoqda. Bu asosan odamlarning o‘z tarixiy vatanlariga qaytib ketishi bilan tushuntiriladi.

5-jadval

O‘zbekiston aholisining milliy tarkibidagi davriy o‘zgarishlar

millatlar	1959		1989		2006	
	Jami(ming kishi)	%	Jami(ming kishi)	%	Jami(ming kishi)	%
Jami aholi SHundan:	8105,7	100	19810,1	100	26312,7	100
O‘zbeklar	5038,3	62,2	14142,5	71,4	21165,4	80,4

Ruslar	1090,7	13,4	1653,5	8,3	995,9	3,8
Tojiklar	311,4	3,8	933,6	4,7	1297,3	4,9
qozoqlar	335,3	4,1	808,2	4,1	925,9	3,5
Tatarlar	444,8	5,5	467,8	2,4	241,8	0,9
Qoraqalpoqlar	168,3	2,1	411,9	2,1	586,8	2,2
Koreyslar	138,5	1,7	183,1	0,9	139,7	0,5
Qirg'izlar	92,7	1,15	174,9	0,9	210,5	0,8
Ukrainlar	87,9	1,1	153,2	0,8	91,3	0,4
Turkmanlar	54,8	0,7	121,6	0,6	134,2	0,5
Yahudiylar	94,3	1,2	65,5	0,3	-	-
Armanlar	27,4	0,35	50,5	0,3	39,7	0,2
ozarbayjonlar	40,5	0,5	44,4	0,2	38,4	0,2
boshqalar	181,4	2,2	599,4	3,0	445,8	1,6

Mamlakat aholisining milliy tarkibiga hamisha migratsion jarayonlar kuchli ta'sir ko'rsatgan. Sobiq ittifoq davrida mamlakatga turli millatlarning kirib kelish tendentsiyasi kuzatilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida turli ba'zi millatlar mamlakat aholisi tarkibidan butunlay chiqib ketdi.

Mamlakat aholisining diniy tarkibida islom diniga e'tiqod qiluvchilar asosiy o'rin tutadi. Mamlakatda diniy totuvlik va bag'rikenglik muhiti shakllangan. Binobarin, har qanday e'tiqod vakillari uchun yetarli sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston aholisi sonining dinamikasini shahar va qishloqqa bo'lib ko'rib chiqishda anchagina farqlarga egaligi ko'zga tashlanadi. Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, shahar aholisining o'sish sur'ati umuman sobiq ittifoqning tugashi davrigacha ham qishloq aholisidan yuqori bo'lgan.

Shahar aholisi sonining o'sishidagi yuqori jadallik XX asrning 1926-1940 yillar oralig'ida sodir bo'lgan va yiliga 3,4% ni tashkil etgan, shuningdek 60-70

yillarda ham kuzatiladi, bu yillarda ko'rsatkich yillik 4,3% (1959-1970 yy)ni va 4,4% (1970-1979 yy)ni tashkil qilgan. Sovet davrining so'nggi o'n yilliklarida shahar aholisining yillik o'sish sur'ati 2,5%gacha pasaygan (1979-1990yy).

1865 yildan 2007 yilgacha bo'lgan tarixiy davr mobaynida mamlakatda shahar aholisi soni 20,5 baravar ko'paydi, 1917 yildan 2007 yilgacha esa 10,2 baravarga o'sgan. Bu davrlarda qishloq aholisi muvofiq ravishda 6 va 4,8 baravar ko'payganligi e'tirof etiladi.

1959 yildan 1990 yilgacha mamlakat shahar aholisi 5,6 mln kishiga ko'paydi, ya'ni 3 baravar oshdi. Bu davrda shahar aholisining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 3,8% ni tashkil etgan bo'lib, qishloq aholisidan 1,2% ga ortiq bo'lgan. Respublika shahar aholisining salmog'i 1959 yilda 33,6% dan 1990 yilda 40,8% gacha o'sdi.

SHunday qilib 1959 yildan 1990 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda urbanizatsiyaning umumiy darajasi 7,2% ga o'sgan. Urbanizatsiyaning bu davrdagi o'rtacha yillik o'sishi 0,23% ni tashkil etgan xolos.

Umuman olganda O'zbekiston shahar aholisi salmog'ining eng yuqori darajaga 1979 yilda yetdi va 41,4% ni tashkil etib, bu 1917 yilga nisbatan 2 baravar, 1865 yilga nisbatan 3 baravarga ortiqdir.

Bundan keyingi yillarda O'zbekiston shahar aholisining salmog'i doimo va izchil ravishda pasayib borgan. 1990 yilda shahar aholisining umumiy salmog'i 40,8% ni 1995 yilda 38,4% ni 2000 yilda 37,6% ni 2005 yilda 36,1% ni 2007 yilda 35,9% ni tashkil etgan. 2009 yilda mamlakatda 991 ta qishloqlarga shaharcha maqomining berilishi urbanizatsiya salmog'ining keskin ko'tarilishiga olib keldi va urbanizatsiya darajasini 51,7% ga yetkazdi. Endilikda mamlakat va ba'zi viloyatlarda ham urbanizatsiya darajasi yuqori holatda deyish mumkin. Bunday tadbir mamlakat aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, aholi turmush tarzini zamon ruhiga va jahon andozalariga mos o'zgarishi, mamlakat umumiy taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishiga yordam beradi. Endilikda shahar maqomini olgan qishloqlarda shahar infrastrukturasini va shahar turmush

tarzini shakllantirish, madaniy va siyosiy-ijtimoiy tushunchalarni shakllantirish vazifasi turadi.

I. 2. O‘zbekiston aholisi demografik rivojlanishining davriy o‘zgarishlari.

O‘zbekiston hamisha aholi tabiiy o‘shining yuqori ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib kelgan mamlakatdir. Tabiiy o‘shning yuqori bo‘lishi asosan mahalliy xalqlar o‘rtasida tug‘ilishining yuqori bo‘lishi bilan belgilanadi. Ko‘p farzandli oilalar – o‘zbek xalqining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

O‘zbekistonda tug‘ilishning yuqori bo‘lishi uzoq tarixiy davr mobaynida xarakterli jihat bo‘lib kelgan. Sobiq ittifoq davrigacha o‘lim darajasining ham yuqori bo‘lishi tabiiy o‘shni pasaytirib turuvchi omil bo‘lib xizmat qilgan. 1917 yilgacha tabiiy o‘sh ancha past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan. 1897 yilgi aholi ro‘yxatida O‘zbekiston hududidagi tug‘ilish koeffitsienti 49,8 ‰, o‘lim koeffitsienti 44,8‰ bo‘lib, tabiiy o‘sh koeffitsienti tabiiyki, 5,0‰ ga teng bo‘lgan. Tabiiy o‘shning bunday ko‘rsatkichlari 1917 yilgacha saqlanib turgan.


6-jadval

O‘zbekiston aholisi tabiiy o‘shining mutloq ko‘rsatkichlari va koeffitsientlari

yillar	Ko‘rsatkichlar (ming kishi)				Har 1000 kishiga		
	Jami aholi	Tug‘ilganlar	O‘lganlar	Tabiiy o‘sh	Tug‘ilganlar	O‘lganlar	Tabiiy o‘sh
1897	3948	197,2	177,4	19,8	49,8	44,8	5,0
1900	4016	200,4	180,3	20,1	49,8	44,8	5,0
1917	4486	217,3	187,9	29,4	48,5	41,9	6,6
1926	4621	190,9	103,5	87,4	41,5	22,5	19,0
1940	6551	223,1	87,1	136,0	33,8	13,2	20,6
1950	6194	194,9	55,5	139,4	30,9	8,8	22,1
1960	8119	340,6	51,8	288,8	39,8	6,0	33,8
1970	11799	401,6	66,2	335,4	33,6	5,5	28,1

1980	15751	540,0	118,9	421,1	33,9	7,5	26,4
1990	20222	691,6	124,5	567,1	33,7	6,1	27,6
2000	24488	527,6	135,6	392,0	21,3	5,5	15,8
2007	26664	609,0	145,3	463,7	22,4	5,2	17,2

2-rasm



Sovet hokimiyatining ilk yillarida mamlakat hududida tugʻilish birmuncha pasayishi bilan bir qatorda oʻlimning ham kamaygani kuzatiladi va bu holatda tabiiy oʻsish koʻrsatkichlari biroz koʻtarilgan.

1940 yilda tugʻilish koeffitsienti 33,8%, oʻlim koeffitsienti 13,6% boʻlib, tabiiy oʻsish koʻrsatkichi har ming kishiga nisbatan 20,6 kishiga teng boʻlgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda oʻlimning keskin kamayishi, XX asrning 60- yillaridan 80-yillarining ikkinchi yarmiga qadar esa tugʻilishning sezilarli darajada koʻpayishi kuzatiladi va buning natijasida tabiiy oʻsish juda yuqori koʻrsatkichlarga ega boʻladi. Tabiiy oʻsishning eng yuqori darajasi 1986 yilda yuz berdi. SHu yilda tabiiy oʻsish koeffitsienti 30,8% darajasiga yetdi. Bunda tugʻilish 37,9% ga, oʻlim 7,1% ga teng boʻlgan.

Bundan keyingi yillarda tugʻilishning kamayishi kuzatiladi. SHunga qaramay aholining tabiiy harakati mamlakatda aholi soni dinamikasini belgilovchi


asosiy omildir. Holbuki, keyingi o'n yilliklarda tabiiy o'sish darajasi anchagina pasaygan. Masalan 1991 yilda tabiiy o'sish 28,3% bo'lgan bo'lsa, 2007 yilda 17,2% ko'rsatkichiga ega bo'ldi, ya'ni 16 yil ichida 11,1% ga pasaydi. Ushbu davr ichida tug'ilish 34,5% dan 22,4% ga tushdi, ya'ni 1,5 martaga qisqardi.

Ko'rsatib o'tish muhimki, tug'ilishning qisqarishi mamlakat qishloq aholisi bo'yicha sezilarli bo'ldi. 1991 yilad qishloq aholisining tug'ilish darajasi 39,8% bo'lgan bo'lsa, 2007 yilga kelib 22,7% ga tushdi, ya'ni 17,1% ga qisqarib, mamlakat tabiiy o'sishi o'rtachasiga teng bo'lib qoldi.

O'limning past darajasi nisbatan barqaror bo'lgani holda – 1991 yilda 5,2%, 2007 yilda 5,2% bo'lib, tug'ilishning ham pasayishi mamlakatda tabiiy o'sish darajasini belgilovchi omil sifatida xizmat qiladi. 2007 yilda tabiiy o'sishning o'rtacha darajasi 17,2% ga teng bo'ldi. Mustaqillik yillarida ushbu ko'rsatkich shahar va qishloq aholisi uchun deyarli bir xil darajada bo'ldi. 1991 yildan 2007 yilgacha aholi tabiiy o'sishi shaharda 7,5% ga, qishloqda 15,8% ga qisqardi.

SHu tariqa O'zbekistonda aholi tabiiy o'sishining davriy dinamikasi haqida umumiy xulosaga kelish mumkin. Mamlakat hududida aholi tabiiy o'sish ko'rsatkichlari muayyan yillar oralig'ida qiyoslanishi maqsadga muvofiq. Bunda ayni davr oralig'idagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi -rasmda 50 yillik davrdagi aholi soni ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, XX asrning birinchi yarim yilligi oralig'ida aholi soni unchalik katta miqdorda o'zgarmagan bo'lsa, ikkinchi yarim yillik oxiridagi raqam 4 baravar ortiq ko'rsatkichga ega. Buning qanday ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarga ega ekanligi tarixdan ma'lum. Xususan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, siyosiy barqarorlik aholi sonining o'sishiga ijobiy ta'ir ko'rsatishi aniq ko'zga tashlanib turibdi. Aynan ushbu davrlar oralig'ida O'zbekistondagi aholi demografik ko'rsatkichlarini qiyoslash mumkin.

3-rasm



Mamlakatda aholi ko'payishiga aholining tabiiy o'sishi bilan birga aholi migratsion harakatlari, ya'ni kishilarning ko'chib yurishlari katta ta'sir ko'rsatadi. Aholi soniga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy migratsion harakatlar mamlakatdan tashqariga chiqish va mamlakatga ko'chib kirish hisoblanadi.

O'zbekiston hududida aholi turli davrlarda tashqi va mamlakatga kiruvchi migratsiya harakatlarini amalga oshirganlar. Buning tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillari XX asrygacha savdo, aholining turmush tarzi bilan belgilansa, sobiq ittifoq davriga kelib avvalo siyosiy, keyinchalik iqtisodiy va ijtimoiy xarakterga ega bo'ldi.

O'zbekiston hududidagi migratsiya harakatlari alohida ilmiy tahlilni taqozo etadi. Binobarin, bu ishda migratsiyaning aholi soni dinamikasidagi davriy o'rni haqida so'z yuritiladi.

Migratsiyaning mamlakat aholisi miqdoriy o'zgarishlariga ta'siri haqida so'z borar ekan, bu hodisaga avvalo tarixiy aspektda yondashish maqsadga muvofiqdir. Sobiq ittifoq davrining ilk yillaridan boshlab, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda mamlakatga kirib keluvchilar soni doimiy ortiq bo'lgan va migratsiya saldosini musbat holatda saqlanib turgan. Bu davrda mamlakatga sobiq ittifoqning turli respublikalaridan aholining majburiy va ixtiyoriy ko'chib kelishi odatiy hol edi. Bu o'z navbatida aholining milliy tarkibiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Mamlakatga ko'chib kiruvchilarning ortiqchiligi XX asrning 80-yillariga qadar saqlanib turdi. Bu davrning ba'zi yillarida ko'chib keluvchilarning soni o'rtacha 100 mingtani tashkil etgan. Garchi mamlakat aholisining ko'payishini belgilovchi omil tabiiy o'sish bo'lsada, migratsiyaning ham o'rni sezilarli bo'lganligi ko'rinib turibdi. XX asrning 80- yillaridan boshlab, ko'chib ketuvchilar soni ko'payib bordi va ushbu yillardan boshlab migratsiya saldosini manfiy ko'rsatkichga keldi.


Mustaqillik yillarida migratsiya saldosini doimiy manfiy bo'lib, mamlakat aholisining miqdoriy ko'payishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda ko'chib ketuvchi aholining asosiy qismini boshqa millat vakillari tashkil etadi. Migratsiyaning milliy, demografik tarkibini o'rganish alohida tadqiqot ishlarini taqozo etadi. So'nggi yillarda migratsiya saldosini o'rtacha 60% ni tashkil etadi.

SHunday qilib O'zbekiston aholisining demografik rivojlanishi turli davrlarda, har xil omillar ta'sirida o'zgarib turibdi. Bu jarayonni davriy tahlil qilishda tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillarni hisobga olgan holda xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakat aholisi doimiy barqaror ko'payish holatida va ko'payishning asosiy belgilovchi omili tabiiy o'sishdir. Migratsiya harakatlari XX asrning so'nggi 10 yilliklari va mustaqillik yillarida miqdoriy o'sishni sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston hududida aholi sonining davriy o'sish manbalari dinamikasi

yillar	Aholi sonining umumiy o'sishi	SHu jumladan			
		Tabiiy o'sish (kamayish)		Migratsion o'sish(kamayish)	
	Ming kishi	Ming kishi	%	Ming kishi	%
1926-1939	1930,0	1684,2	87,3	245,8	12,7
1940-1944	-1354,0	252,7	18,7	-606,7	-18,7
1945-1950	1237,0	673,6	54,5	563,4	45,5
1951-1955	907,0	871,1	96,0	35,9	4,0
1956-1960	1379,9	1248,5	90,5	131,4	9,5
1961-1965	1677,4	1448,3	86,3	229,1	13,7
1966-1970	1730,8	1563,1	90,3	167,7	9,7
1971-1975	1949,7	1817,3	93,2	132,4	6,8
1976-1980	1996,0	2047,4	102,6	-51,4	-2,6
1981-1985	2276,4	2418,5	106,2	-142,1	-6,2
1986-1990	2285,6	2825,5	123,6	-539,9	-23,6
1991-1995	2299,4	2756,4	119,9	-457,0	-19,9
1996-2000	1906,6	2195,4	115,1	-288,8	-15,1
2001-2007	2258,7	2837,4	125,6	-578,7	-25,6

4-rasm



II. BOB. JIZZAX VILOYATI AHOLISINING DEMOGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.

II.1. Jizzax viloyati aholisining hududiy geografik tavsifi.

Jizzax viloyati aholisining tarkib topishida turli tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatgan. Tarixiy manbalar asosida shuni aytish mumkinki, qadimiy Jizzax hududida eron tili guruhiga mansub aholi yashagan. Arablar bosqini, somoniylar imperiyasi va keyingi davrlarda ham aholining lingvistik tarkibi o'zgarmagan bo'lishi kerak. Chunki, ayni vaqti ma'nosi va etimologiyasi birmuncha noma'lum bo'lgan joy nomlari jumladan Jizzax shahri nomining o'zi ham qadimgi so'g'd tilida ekanligi e'tiborga sazovordir. So'g'dcha kelib chiqishga mansub joy nomlari Zomin va Baxmal, Forish tumanlarida uchraydi, lekin kam qolgan. Aksariyat qishloqlarning nomlari urug' yoki qabilalar nomi bilan bog'liq. Binobarin bu joylarning aholisi ko'chmanchi urug'larning o'rta asrlarda kelib joylashuvi natijasida tarkib topgan. Buni ba'zi qishloqlar aholisi vakillari ham ta'kidlab, o'z ajdodlarining Amir Temur davrida ko'chib kelganligini aytadilar.


XX asrda Mirzacho'lning o'zlashtirilishi natijasida bir qancha aholi punktlari vujudga kelib, viloyatning cho'l hududi gavjumlasha boshladi. Viloyatning aholisi ham intensiv ravishda o'sib bordi. Aholining tog'li hududlardan cho'l zonasiga ko'chib o'tish tendentsiyasi tinimsiz davom etdi. XX asrning 80 – yillarida viloyat cho'l tumanlarida aholi zichligi va soni yuqori nuqtasiga yetdi. Ayni vaqtda tog' tumanlarida aholi soni faqat tug'ilish hisobiga o'sdi. Aholi zichligi kamaydi. Bunday holat mustaqillik yillarida qarama – qarshi tomonga o'zgardi. Aholi tabiiy harakatidagi bunday o'zgarishlar iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida yuz berdi. Chunki, cho'l hududlarida ta'minot va aholining ish bilan ta'minlanishi, xo'jalik yuritish tarzining o'zgarishi, aholining ba'zi qatlamlarining turmush darajasining pasayishiga olib keldi.

Jizzax viloyati tashkil etilganidan beri viloyat aholisi soni, tarkibida turli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Viloyat aholisining soni 1973 yilda 388 ming, 1979 yilda 510,7 ming, 1989 yilda 736,7 ming, 1999 yilda 980,2 ming, 2003 yilda 1,007

ming, 2009 yilda 1116,8 ming kishini tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki viloyat tashkil etilganidan beri 30 yil ichida aholi uch barobar ko‘paygan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda o‘shish sur‘ati katta bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Bunday o‘shish tendentsiyasi pasayib bormoqda. Agar 2006 yilda viloyat aholisining umumiy soni 1051,4 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2007 yilda 1065,3 kishini, 2008 yilda 1081,5 kishini tashkil qildi. 2007 yilda aholi 11,9 ming kishiga ortgan bo‘lsa, 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 15,8 ming kishiga ko‘paygan.

Viloyatda aholi sonining o‘shib borishi davriy tahlil qilganda muayan yillar kesimida qiyoslash aniq tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Quyida viloyat tashkil topgan yildan boshlab, mamlakatda aholi ro‘yxatlari davrlari oralig‘ida aholi sonining o‘shish dinamikasi ko‘rsatiladi. Bunda viloyat tarixida birinchi aholi ro‘yxatlari o‘tkazilgan 1979 yildan boshlab 30 yil ichida aholining qanchalik ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

5-rasm



Aholi demografik rivojlanishida aholining jinsiy tarkibi asosiy o‘rin tutadi. Viloyatda ayollar va erkaklar nisbati unchalik katta tafovutlarga ega emas va bu

holat ko‘p yillar dadvomida saqlanib turadi. Aytib o‘tish kerakki erkaklar soni umumiy hisobda birmuncha ortiq bo‘lib, mustaqillik yillarida ayollar salmog‘i ham ko‘tarila boshladi. Lekin erkaklar ulushining ortiqligi saqlanib qolaverdi.

8 -jadval

Jizzax vilyaoti aholisi jinsiy tarkibining davriy o‘zgarishlari

Yillar	Mavjud aholi soni (kishi)	Erkaklar (kishi)	Jami aholiga nisbatan %	Ayollar (kishi)	jami aholiga nisbatan %
2001	1011000	509000	50,34	502000	49,65
2002	1024900	516000	50,34	508900	49,65
2003	1036500	521900	50,35	514600	49,64
2004	1048700	527900	50,33	520800	49,66
2005	1056800	532300	50,36	524500	49,63
2006	1064700	539100	50,63	525600	49,36
2007	1070200	541323	50,58	528877	49,41
2008	1079500	547000	50,67	532500	49,32
2009	1098300	550751	50,14	547549	49,85
2010	1116800	560027	50,14	556773	49,85
2011	1166700	585068	50,14	581632	49,85
2012	1186600	594619	50,11	591981	49,88
2013	1205000	603827	50,11	601173	49,88

2014	1226822	615188	50,14	611634	49,85
------	---------	--------	-------	--------	-------

Aholi sonining o'sishiga migratsiya ham ta'sir ko'rsatadi. Jizzax viloyatida migratsion harakatning aholi soniga ta'siri sobiq Ittifoq davrining so'nggi yillarida juda katta bo'lgan. Cho'lning o'zlashtirilishi bilan mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyoj sobiq Ittifoqning turli tomonlaridan, shu bilan birga O'zbekistonning Farg'ona vodiysi viloyatlaridan aholining ko'plab ko'chib kelishiga sabab bo'lgan. Viloyat aholisining soni asosan migratsiya hisobiga o'sib borgan. Lekin ko'chib kelayotgan aholining bir qismi qisqa muddat ichida qaytib ketishi odatiy holat edi. SHuning uchun ham o'sha yillardagi aholining demografik holatini kuzatilsa, doimiy aholi sonida katta o'zgarishlar ko'rinmaydi. Mustaqillik yillarida aholi migratsiyasi respublikadagi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liq holda rivojlandi.

9 - jadval

Jizzax viloyatida aholi migratsiyasi (har 1000 kishiga nisbatan)

Yillar	Kelganlar	Ketganlar	Migratsiyasi sal'dosi
2005	6,9	18,0	- 11,1
2006	6,7	12,2	-5,5
2007	6,8	10,6	-3,8
2008	4,0	4,0	0,0
2013	7,0	7,6	-0,6

Manba: Jizzax viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatda migratsiya sal'dosi doimiy manfiydir. Viloyatda migratsiya sal'dosining manfiy bo'lishi, viloyatning cho'l tumanlaridagi aholining ko'pchiligi boshqa viloyatdan ko'chib kelib joylashgan kishilardan iborat ekanligi bilan ham izohlanadi. Ayni vaqtda Farg'ona vodiysi viloyatlaridan, Samarqand viloyatidan sobiq Ittifoq davrida cho'lni o'zlashtirishga jalb qilinganlar asta – sekin o'z joylariga qaytmoqdalar. SHuningdek, viloyat aholi tarkibida

sezilarli o‘rin egallaydigan qozoq millatiga mansub kishilarning Qozog‘iston Respublikasiga ko‘chib ketishi davom etmoqda.

Viloyat aholisining hududiy joylashuvi birmuncha notekis. Bu holat hududda aholi yashashi uchun tabiiy qulayliklarning turlicha ekanligidir. Aholi zichligi 1 km .kvga 57,8 kishidan to‘g‘ri keladi. Viloyat aholisining turmush sharoiti qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli qishloq tumanlarida aholi zichligi bo‘yicha tafovutlar mavjud. Ularning aksariyatida zichlik ko‘rsatkichlari viloyatnikidan yuqori. Aholi zichligining eng past ko‘rsatkichi Forish tumanida kuzatiladi, bu tuman Nurota tizmasining ikki yonbag‘ri va Qizilqum cho‘lining sharqiy qismlarida joylashgan, viloyat bo‘yicha maydon jihatdan eng yirik tumani hisoblanadi. Uning maydoni 9,67 ming km. kv, aholi zichligi esa 1 km kv ga 8,6 kishidan to‘g‘ri keladi, xolos. Bu tumanning anchagina hududi qurg‘oqchil cho‘l va adir zonalaridan iborat. Agar hududiy zichlikni taqqoslab ko‘radigan bo‘lsak, Jizzax shahrida 1 km kv ga 1632 kishi to‘g‘ri keladi, lekin bu yirik shaharlar uchun odatdagi hol; tumanlar ichida eng yuqori zichlik Paxtakor tumaniga tegishli, aholi zichligi 1 km kv ga 175,5 kishi.

Tumanlar o‘rtasida aholi zichligini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq, chunki tog‘ va tog‘ oldi hududlari bilan cho‘l mintaqalari turli tabiiy sharoit va imkoniyatga ega ekanligi aholi zichligida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda tumanlarda aholi zichligini - jadval ma’lumotlarida ko‘rish mumkin. Jadvalda aholi zichligidagi o‘zgarishlar asosan o‘sish xususiyatiga egaligi ko‘rinib turibdi. Ularni yillar kesimida taqqoslaganda, ba’zi tumanlarda o‘sish sur’ati juda kattaligiga amin bo‘lamiz. SHunisi e’tiborga sazovorki, barcha tumanlarda zichlik o‘sgani holda Arnasoy va Mirzacho‘l tumanlarida u kamaygan. Buning asosiy sababi so‘nggi yillarda ushbu tumanlarda migratsiya jarayonida ketganlar sonining ortib borishidir.

10- jadval

Jizzax viloyati tumanlarida aholi zichligi

Tumanlar	Maydoni,	(1 km kv ga kishi)
----------	----------	--------------------

nomi	ming km kv	1979	1989	1998	2008	2014
Arnasoy	0,49	32,5	60,4	78,9	77,8	85,5
Baxmal	1,86	27,8	37,8	50,3	63,9	73,3
Jizzax	1,32	50,9	79,8	103,4	122,6	143,1
Do'stlik	0,45	76,2	106,4	107,4	116,9	130
Zomin	2,87	22,0	436,0	43,4	46,3	55,2
Zarbdor	0,51	-	-	45,3	100	118,4
Zafarobod	0,47	53,1	60,2	74,0	88,1	95,7
Mirzacho'l	0,42	88,8	102,6	117,3	100,2	106,9
Paxtakor	0,38	86,8	114,7	141,7	159,5	175,5
Forish	9,67	4,9	6,2	7,5	7,7	8,6
Yangiobod	0,72	-	-	-	32,4	35,4
G'allaorol	1,95	34,3	45,9	58,2	68,2	78,3
Jizzax sh.	0,1	977,1	1269	1781,1	1425	1632
Viloyat bo'yicha	21,21	25,2	34,8	45,2	50,6	57,8

Viloyat tumanlaridagi zichlik holatidan viloyat aholisining ko'pchiligi qaysi hududlarda istiqomat qilishi haqida mulohaza qilish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, viloyat hududi tog'li va cho'l tumanlariga bo'linadi. Binobarin, aholi yashash hududini ikki qismga: an'anaviy va zamonaviy hududlarga ajratishimiz mumkin. An'anaviy hududga asosan tog' va tog' oldi tekisliklaridagi qishloqlar va shahar tipidagi qo'rg'onlar, Jizzax shahrini kiritiladi. Zamonaviy hududga esa o'zlashtirilgan cho'l hududlarida XX asr davomida vujudga kelgan aholi punktlari kiradi. Bunday aholi punktlariga xo'jalik markazlari, shuningdek, Dashtobod, Paxtakor, Do'stlik, Gagarin kabi sanoat tugunlari bo'lgan shaharchalar kiradi.

Aholi yashash hududlarining bunday tiplarga ajratilishi asosan aholining joylashuv xususiyati bilan bog'liq bo'lib, aholi punktlarining shakllanish davri hisobga olinmaydi. Chunki, "an'anaviy" deb atalayotgan hududlarda viloyat sanoati va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan G'allaorol, Qo'ytosh,

Marjonbuloq, Zomin kabi shaharchalar yaqin yillarda rivojlanib, kengaydi va o'sishda davom etmoqda.

Viloyatning cho'l hududlariga aholi XX asrning 2 – yarmidan boshlab joylasha boshladi va ayni vaqtgacha ushbu hududlarda aholi soni to'xtovsiz o'sib bormoqda. Agar tog' tumanlarida o'sish faqat tug'ilish hisobiga bo'lgan bo'lsa, cho'l tumanlarida migratsiya ham katta rol o'ynaganligi yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi. Aynan aholining mexanik harakati, cho'l hududlari aholisining shakllanishida katta rol o'ynadi. Bu hol viloyatning tumanlararo milliy tarkibida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Viloyatning barcha tumanlarida o'zbeklar asosiy o'rin egallagani holda, cho'l tumanlarida turli millat vakillarining, jumladan qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar o'zlarining an'anaviy yashash hududlaridan ko'ra ba'zi hududlarda ko'pchilikni tashkil qilganlar.

Agar viloyat aholisining joylashuvidagi milliy tarkib xususiyatlarini ta'riflaydigan bo'lsak, Jizzax viloyati hududida azaldan yashab kelayotgan millat vakillaridan qozoqlar – Arnasoy, Mirzacho'l, Forish tumanlari hududida, tojiklar – Forish tumani hududida, qirg'izlar Baxmal va Zomin tumanlari hududlarida joylashganlar. Ko'rinib turibdiki, aholining joylashuvida millatlarning turmush tarzi asosiy rol o'ynagan. Masalan, qozoqlar azaldan cho'l yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanganlar, tojiklar Nurota tizmasining shimoliy yonbag'rida dehqonchilik va chorvachilik bilan, qirg'izlar esa baland tog' – yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanib kelganlar. Ularning cho'l hududlariga kelib joylashuvida, aholini ko'chirish dasturi asosiy omil bo'lgan.

Aholining cho'l tumanlari bo'ylab ko'chishi harakatlari XX asrning 70 – 80 yillarida yaqqol ko'zga tashlandi, binobarin bu holni alohida tahlil qilish zaruriyati mavjud. Yangi – yangi xo'jaliklarning tashkil etilishi, yangi mehnat resurslarining jalb etilishi, respublikaning boshqa viloyatlaridan, shuningdek viloyat tumanlaridan ham aholining ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Tumanlararo migratsiya aholining turli qatlamlarining o'ziga xos qarindoshlik, millatdoshlik xususiyatlariga ham asoslangan. Xususan, xo'jalik rahbarlari yoki bir qishloq

a'zolarining birgalikda yangi joyda yashashga da'vat etishi kishilarning turli xo'jaliklar va tumanlar bo'ylab ko'chib o'tishlariga sabab bo'lgan. Mustaqillik yillarida viloyat tumanlararo migratsiya jarayoni ancha pasaydi, natijada tumanlar milliy tarkibida barqarorlik yuzaga kela boshladi. Ayni vaqtda cho'l tumanlarida milliy tarkib aniq hududiy xarakterga egadir. O'zbeklar barcha tumanlarda ham tarkibning asosiy qismini tashkil qilgani holda, boshqa millat vakillari turli tumanlarda turlicha ko'rsatkichga ega. Jumladan, Mirzacho'l tumanida qozoqlar 50 foizdan ko'proqni tashkil etadi, shuningdek Arnasoy, Zafarobod

11– jadval

Jizzax viloyati aholisining hududiy tarkibi

Tumanlar nomi	1979		1989		2008		2014	
	Aholi soni, ming k.	Viloyat aholisiga nisbatan%da	Aholi soni, ming k.	Viloyat aholisiga nisbatan%da	Aholi soni, ming k.	Viloyat aholisiga nisbatan%da	Aholi soni, ming k.	Viloyat aholisiga nisbatan%da
Arnasoy	15,0	2,9	29,6	4,0	38,1	3,5	41,9	3,4
Baxmal	51,4	10,3	70,4	9,5	120,1	11,1	136,5	11,1
Jizzax	71,8	14,0	105,4	14,2	163,8	15,1	188,9	15,3
Do'stlik	33,5	6,5	38,3	5,1	53,0	4,9	58,9	4,8
Zomin	70,	13,7	121,9	16,5	134,3	12,4	158,7	12,9
Zarbdor	-	-	-		51,5	4,7	60,4	4,9
Zafarobod	16,1	3,1	28,3	3,8	41,5	3,8	45,0	3,6
Mirzacho'l	35,6	6,9	43,1	5,8	41,7	3,8	44,9	3,6
Paxtakor	33,2	6,4	43,6	5,9	61,1	5,6	66,7	5,4
Forish	48,4	9,4	60,4	8,1	75,2	6,9	83,4	6,7
Yangiobod	-		-		23,5	2,1	25,5	2,0
G'allaorol	66,6	13,3	89,5	12,1	134,1	12,3	152,8	12,4

Jizzax sh.	69,5	13,5	107,3	14,5	143,6	13,2	163,2	13,3
Viloyat aholisi	511,7	100	738,0	100	1081,5	100	1226,8	100

tumanlarida ham nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladilar, qirg'izlar Do'stlik, Zarbdor, Paxtakor tumanlarida, tojiklar Zafarobod, Do'stlik, Arnasoy tumanlarida boshqa cho'l tumanidagilarga qaraganda ko'proq. Ko'p millatlilik xususiyati viloyatdagi shaharlar hamda cho'l tumanlaridagi qishloq aholi punktlariga xosdir.

Jadval orqali viloyat tumanlari bo'yicha aholi taqsimoti haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Jadvalda viloyatda aholining tumanlar bo'yicha 30 yil davomida qanday rivojlanganligi aks etgan. Ko'rinib turibdiki, tumanlar bo'yicha aholi soni jihatdan deyarli bir tekis ko'paygan. Faqat ba'zi tumanlar aholisining viloyat bo'yicha foiz jihatdan sezilarli o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Tumanlar bo'yicha G'allaorol, Jizzax, Baxmal, Zomin tumanlarida aholi ko'pchilikni tashkil qiladi. SHuningdek, Jizzax shahrida ham viloyat aholisining anchagina qismi istiqomat qiladi. Albatta, 30 yil ichida tashkil etilgan 2 tuman hisobiga viloyat hududiy tuzilishida bir muncha o'zgarishlarni ko'ramiz, shuning uchun ham ushbu yillar ichida viloyatning umumiy aholi soni 2 barobar o'sgani holda tumanlararo taqsimotda ko'rinadiki, ba'zi tumanlarda aholi foiz jihatdan oldingi yillardagidan past ko'rsatkichda ekanligi tushunarlidir. Masalan, G'allaorol tumanida 1979 yilda viloyat aholisining 13,3 foizi yashagan, 2008 yilga kelib esa, bu ko'rsatkich 12,3 foizga, ya'ni 1 foizga tushgan holbuki bu davrda aholi miqdor jihatdan 2 barobar ko'paygan.

Viloyatning cho'l tumanlarida ham shu tendentsiya kuzatiladi. Deyarli barcha tumanlarda aholi sezilarli darajada ko'paygani holda foiz darajasi pasayganligi viloyat aholisining barcha hududlarda bir tekis ko'payganligining isbotidir. Ayni vaqtda viloyat bo'yicha eng ko'p aholi Jizzax tumanidadir.

Ushbu yillar ichida viloyatda shahar va qishloq aholisi miqdorida ham birmuncha o'zgarishlar seziladi. SHahar aholisining soni 1979 yilda 140 ming

kishini tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsatkich 321,2 ming kishiga yetdi. Qishloq aholisining soni ham 1979 yilda 371,8 ming kishini tashkil etgan, 2008 yilda esa 758,4 ming kishiga yetdi. Bu esa viloyatda shaharlashuv (urbanizatsiya) darajasi past bo'lganligini ko'rsatadi. O'tgan yillar va ayni vaqtda aholining shahar va qishloq aholisi soni o'rtasidagi tafovutni solishtirish uchun quyidagi jadvalni tuzish mumkin:

12- jadval

Viloyat aholisining shahar va qishloqlar bo'yicha taqsimlanishi
(ming kishi)

Yillar	Umumiy aholi soni	SHahar aholisi	Qishloq aholisi
1979	511,7	140,0	371,7
1989	738,0	220,6	517,4
1999	927,8	290,8	637,0
2008	1079,6	321,2	758,4
2010	1116,7	526,8	589,9
2014	1226,8	581,3	645,4

2009 yilgacha viloyat aholisi 6 ta shahar 7 ta shaharcha va 558 ta qishloq aholi punktlarida istiqomat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy – hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 120-sonli maxsus qarorini amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy – hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 68-sonli Qaroriga binoan 2009 yildan viloyat hududidagi 34 qishloq aholi punktiga shahar maqomi berildi. SHu tarzda viloyatning urbanizatsiya ko'rsatkichlarida keskin o'zgarish yuzaga keldi. Natijada 2010 yilga kelib, viloyatda shahar va


shaharchalar soni 47 tani, qishloqlar soni 518 tani, shahar aholisining soni 526843 kishini qishloq aholisining soni esa 589948 kishini tashkil etdi va viloyatda urbanizatsiya darajasi 47% ga yetdi. 2014 yilga kelib shahar aholisi 581,3 ming kishi, qishloq aholisi 645,4 ming kishidan ortib ketdi.

II. 2. Jizzax viloyati aholisi demografik rivojlanishining davriy o'zgarishlari.

Viloyat aholisining son jihatdan o'sish sur'atlari barcha davrlarda doimo yuqori bo'lib kelgan. Bunda tug'ilish darajasining yuqoriligi va migratsion jarayonlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Viloyat aholisining davriy o'sishi turli yillar oralig'ida birmuncha farq qiladi.

6-rasm



1979 yilgi aholi ro'yxatidan boshlab har 10 yildagi aholi sonining o'sishi tahlil qilinsa, bu miqdor doimiy ravishda ko'payib borganligi kuzatiladi. Jumladan, 1979 yilda viloyat aholisi 511,7 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1989 yilgi aholi ro'yxatida bu raqam 738,0 ming kishiga yetgan, ya'ni 10 yil ichida 266.3 ming

kishiga ko‘paygan, demak, har yili o‘rtacha 26,6 ming kishidan ko‘payib borgan. Ushbu yillar sobiq Ittifoq davriga to‘g‘ri kelib, Jizzax viloyati o‘sha davrda respublikada mehnat resurslarini eng ko‘p jalb qiluvchi mintaqada edi. 1991 yilda bu ko‘rsatkich 824,3 ming kishini, 1999 yilda 980,2 kishini, 2001 yilda 1011,0 ming kishini va 2011 yilda 1166,8 ming kishini tashkil etdi. Mustaqillikning birinchi 10 yilligida aholi 155,9 ming kishiga ikkinchi 10 yilligida 155,8 ming kishiga ko‘paygan, demak aholi soni yiliga o‘rtacha 15,8 ming kishidan o‘sib borganligini ko‘ramiz. Bu mustaqillikkacha bo‘lgan 10 yillikka nisbatan deyarli yarim baravar kam. Bu holat mustaqillik yillarida aholi soni asosan tabiiy o‘sinh hisobiga ko‘payganligi bilan izohlanadi. Tabiiy harakat O‘zbekiston aholisining miqdoriy ko‘payishidagi bosh omil ekanligi yuqorida ta’kidlangan edi. Bu xulosa Jizzax viloyatiga ham tegishlidir.

Viloyatdagi aholi tabiiy harakatini o‘rganish uchun tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sinhni yillar kesimida qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Viloyat aholisining tabiiy harakatida demografik ko‘rsatkichlar davriy ravishda pasayib borish tendentsiyasiga egadir. Tug‘ilish darajasi 1979 yildan 2014 yilga qadar teng baravarina kamayganligi kuzatiladi, shu bilan birga o‘lim darajasi ham 3 baravar kamaygan va bu aholining miqdoriy o‘shishiga imkon yaratadi.

13-jadval


Viloyat aholisining tabiiy harakati ko‘rsatkichlarining davriy o‘zgarishi.

(ming kishiga nisbatan)

yillar	Jami aholi soni(ming kishi)	Tug‘ilish ‰	O‘lim ‰	Tabiiy ko‘payish ‰
1979	510,7	40,6	6,2	34,4
1989	736,7	34,4	5,5	28,9
1991	824,3	37,9	5,0	32,9
1999	980,2	24,4	4,2	20,2

2009	1098,3	24,4	4,1	20,3
2014	1226,8	22,4	2,5	19,9

7-rasm



Aholining tabiiy harakati aholining miqdoriy o'sishidagi asosiy omildir. Lekin aholining mexanik harakati, ya'ni hududiy ko'chib yurishi ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa Jizzax viloyatining qishloq tumanlari, xususan cho'l zonasidagi xo'jaliklar qator yillar davomida aholining mexanik harakati natijasida shakllangan. Ayni vaqtda ham cho'l xo'jaliklarida aholining ko'chishi jarayoni doimiy ro'y bermoqda. Tog'li tumanlarda qishloqlar aholining bir muncha barqaror tarkibiga ega. Ammo, ushbu qishloqlarda aholining ayniqsa yosh oilalarning ko'chishi doimiy ravishda kuzatiladi. Bu Jizzax viloyatida aholining hududiy tashkil qilinishi va mehnat taqsimotidagi muammolar bilan bog'liqdir.

Ta'kidlash joizki, Jizzax viloyatida aholining mexanik harakati ba'zi 10 yilliklar uchun teng miqyosda ro'y bergan. Jizzax va Mirzacho'l hududlarining o'zlashtirilishi natijasida yangi tashkil etilgan qishloqlarga aholi viloyatning Baxmal, G'allaorol, Forish va Zomin tumanlaridan katta partiyalar bilan

ko'chirilib keltirilishi, shuningdek Farg'ona vodiysi viloyatlaridan aholining ko'chib kelishi, viloyat qishloq tumanlarida aholi rivojlanishi va hududiy tashkil qilinishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Sobiq Ittifoq davrida viloyatning cho'l hududlari aholi yashaydigan hududlarga aylantirildi, shaharlar va qishloq aholi punktlari shakllantirildi. Bu jarayon XX asrning 90 – yillarigacha davom etib, cho'l hududlarida yangi xo'jaliklar bunyod qilish va kengaytirish ishlari olib borildi va aholining ko'chib kelishi, joylashishi ta'minlandi.

Aholining mexanik harakati viloyat miqyosida va tumanlararo doimiy ravishda ro'y bergan. Ayniqsa 90 – yillargacha viloyatda migratsion harakat keng miqyosda ro'y berib turgan. Mustaqillik yillarida migratsiya harakatlar birmuncha susaydi, ayniqsa tumanlararo harakatda pasayish seziladi. Sobiq Ittifoq davri va mustaqillik yillaridagi migratsion harakat yo'nalishlari bir – biriga butunlay teskari yo'nalishda ro'y berdi. Chunki aholining migratsion harakati o'z sabab mezoniga ko'ra iqtisodiy harakterda bo'lib, Sobiq Ittifoq davrida cho'l tumanlaridagi aholining iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy ta'minotiga katta e'tibor berilgan. Cho'l hududlarining asosiy paxta xom ashyosini yetkazib beruvchi hudud ekanligini hisobga olinsa cho'l tumanlari aholisi bunday ta'minotga o'z mehnatlari va aytish mumkinki, salomatliklari bilan to'lov berdilar. Ammo, iqtisodiy ta'minotning yuqori darajada ekanligi, tog'li tumanlardan ayniqsa yosh oilalarning cho'l hududiga ko'chib o'tishiga asosiy sababdir.

Mustaqillik yillarida viloyat tumanlararo migratsion harakat yo'nalishida biroz o'zgarish sezildi. Cho'l tumanlaridan aholining boshqa joylarga ko'chishi harakatlari sezilmoqda. Shuning uchun ham migratsiya saldosining manfiy holati viloyatda 1990 yildan beri xarakterlidir. Tumanlarda ham ba'zi yillarda ketganlar sonining ancha ortiqqligi kuzatilmoqda, bu ayniqsa cho'l tumanlariga xosdir. Mustaqillik yillaridagi migratsiya harakati xarakterida tumanlar aholisining milliy tarkibi ham o'z o'rniga egadir.

E'tibor qilish kerakki, XX asrning 70 – 80 yillarida viloyat qishloq tumanlarida aholining mexanik harakati ancha faol, bu faollik cho'l tumanlarida

ayniqsa ancha yuqori bo'lgan. – jadval orqali keyingi 30 yil mobaynida aholining mexanik harakatida qay darajada o'zgarish ro'y berganligini ko'rish mumkin.

14-jadval

Viloyat aholisining mexanik harakati ko'rsatkichlarining davriy o'zgarishi.(ming kishiga nisbatan)

yillar	Jami aholi soni(ming kishi)	Keluvchilar ‰	ketuvchilar ‰	Migratsiya saldosı ‰
1979	510,7	19,7	14,5	5,2
1990	797,2	16,6	23,6	-7,0
1998	963,9	5,4	10,1	-4,7
2008	1079,5	4,0	4,0	0,0
2013	1205,0	7,0	7,6	-0,6

Ko'rinib turibdiki, aholi migratsiyasidagi manfiy saldo XX asrning so'nggi yillarida aholi miqdoriy ko'payshiga aks ta'sir ko'rsatgan, lekin bu aholi soni dinamikasida sezilarli o'rin tutmaydi. So'nggi yillarda esa saldo 0 ga va juda kichik manfiy ko'rsatkichlarga ega, binobarin aholining tabiiy harakati, ya'ni tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish viloyat aholisining dinamik o'sishini belgilovchi omil bo'lib qolaveradi.

Viloyat aholisi miqdoriningdinamik rivojlanishidagi tabiiy va mexanik harakatning o'zaro salmog'i qiyoslab ko'rilsa, yuqoridagi ta'kid yanada qat'iy xulosaga aylanadi.

Viloyat aholisining davriy dinamikasini tahlil qilishda hudud omilini ham alohida e'tiborga olish lozim. Chunki, viloyat tabiiy sharoiti, aholining turmush

tarzi va ishlab chiqarish xarakteri bo'yicha turli xususiyatlarga ega bo'lgan ikki mintaqaga ajralgan bo'lib, bu tog' va o'zlashtirilgan cho'l mintaqalaridir. Bu mintaqalardagi aholining eng avvalo turmush tarzida o'ziga xos tafovutlar mavjud. Bu esa demografik jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Binobarin, viloyat tumanlaridagi demografik rivojlanish jihatlarini tahlil qilish viloyat aholisining dinamik rivojlanishidagi o'ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Vilyaot aholisining miqdoriy dinamikasiga birinchi navbatda tug'ilish ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, tumanlardagi aholining demografik jarayonlari va ularning davriy o'zgarishini tug'ilish jarayonlarini tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

15- jadval

Tumanlarda aholining tug'ilish darajasi
(har 1000 kishiga nisbatan)

Tumanlar nomi	1979	1989	1991	1999	2009	2014
Arnasoy	48,1	43,8	39,8	20,7	23,6	20,5
Baxmal	45,1	45,7	44,5	33,5	28,7	25,3
Jizzax	45,8	31,1	43,1	25,9	27,8	24,4
Do'stlik	40,9	41,5	39,3	22,1	24	20,6
Zomin	41,5	37,6	41,8	27,5	23,9	23,4
Zarbdor	-	-	44,7	23,9	26,1	25,0
Zafarobod	51,0	45,3	43,2	23,1	23,6	21,5
Mirzacho'l	39,0	38,9	35,1	18,4	21,3	19,1
Paxtakor	43,2	39,2	37,7	20,9	23,5	22,8
Forish	39,1	40,5	43,5	24,1	19,1	18,2
Yangiobod	-	-	-	24,1	24,6	21,0
G'allaorol	42,7	40,2	37,7	26,5	23,6	22,9
Jizzax shahri	28,8	39,0	27,1	19,0	18,9	17,8

Viloyat bo'yicha	40,6	34,4	37,9	24,4	24,4	22,4
-----------------------------	------	------	------	------	------	------

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida tug'ilish ko'rsatkichi birmuncha yuqori bo'lgan. Ayniqsa 80 – yillar davomidagi tug'ilish darajasi keyingi yillardagiga nisbatan ancha yuqoridir. Agar 1979 va 1989 yillardagi tug'ilish darajalarini solishtirib qaralsa, tug'ilish ko'rsatkichlarida pasayish tendentsiyalari kuzatiladi. Ayniqsa, bu holat Arnasoy, Jizzax, Zomin, Zafarobod tumanlarida sezilarlidir. Bunday o'zgarishni ayni tumanlardagi “demografik mayl” ning pasayishi bilan tushuntirish kerak, zero ushbu yillarda o'lim ko'rsatkichi ham pasayib borgan. SHu bilan birga qishloq tumanlarida aholining umumiy soni ham ko'payib borganligi kuzatiladi. Demak, tug'ilish darajasining pasayishi asosan, oilalar sonining kamayishi, shu bilan birga ko'p farzandlilikka qiziqishning pasayishi bilan izohlanadi. Bindan tashqari, sobiq Ittifoqning so'nggi o'n yilliklarida aholining ijtimoiy hayotida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'lgan. Masalan, ayollar o'rtasida turli kasalliklarning keng tarqalishi, qishloq aholisining mehnat sharoitining og'irligi, turli kimyoviy dorilarning paxta dalalarida ko'p miqdorda ishlatilishi kabi hodisalar aholining salomatligiga ta'sir ko'rsatdi va demografik maylini susaytirdi. Mustaqillik yillarida esa tug'ilish darajasining sekin – asta ko'tarilishi kuzatilmoqda.

Aholining tabiiy harakatida o'lim ko'rsatkichlari ham muhim omildir. O'lim hodisasining tabiiy o'sishga ta'siri doimiydir va bu ta'sirning qay darajada bo'lishi ko'pgina sabablar bilan bog'liq bo'ladi. O'lim ko'rsatkichlari hududdagi aholining tarkibiy tizimi, ya'ni yosh tarkibida qariyalar salmog'ining qay darajada ekanligi, shuningdek aholining o'rtacha umr davomiyligi, hududdagi aholining salomatligi, hayot tarzi, turli kasalliklarning tarqalish sharoitiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, ekologik vaziyatning aholi hayotiga ta'sirini o'rganishni taqozo etadi. SHuning uchun qishloq tumanlarining o'lim ko'rsatkichlari chuqurroq tahlil qilinsa,

hududlarning ekologik vaziyati, aholiga ko'rsatilayotgan meditsina xizmatining sifati birinchi o'rinda hisobga olinadi.

Jizzax viloyati tumanlarining ekologik sharoiti hududiy jihatdan katta tafovutlarga ega. Tog'li tumanlar va cho'l tumanlari qishloqlarida aholi turlicha ekologik sharoitida yashaydi. SHu bilan birga aholining ijtimoiy hayotida ham turli darajadagi tafovutlar mavjud.

Tog'li tumanlarda o'lim ko'rsatkichining darajasi aholi tarkibida qariyalar salmog'ining yuqoriligi bilan izohlansa, cho'l tumanlarida bu daraja aholi salomatligi bilan bog'liq.

Tumanlardagi o'lim ko'rsatkichlari tahlil qilinsa bu ko'rsatkichning yildan – yilga pasayishi kuzatiladi. Bu holat ayniqsa cho'l tumanlarida sezilarli darajada. Masalan, Arnasoy tumanida 1979 yildan 1989 yilgacha o'lim darajasi 2,1 promillega qisqargani holda, Baxmal tumanida umuman o'zgarmagan. XX asrning so'nggi 10 – yilligida o'lim ko'rsatkichi barcha tumanlarda birmuncha ko'tarilgan, so'ngra esa yana pasayish jarayoni boshlangan. So'nggi yillarda qishloq aholisining o'lim darajasining pasayishi aholi hayot tarzining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Agar, o'lim ko'rsatkichlarini yirik vaqt oralig'idagi o'zgarishini kuzatsak, viloyat qishloqlarida o'limning darajasi stabil holatda ekanligini ko'ramiz, ya'ni yillar kesimida keskin o'zgarishlar yo'q. Faqat ba'zi yillarda o'limning deyarli bir promillega pasayish holati kuzatiladi, lekin o'n yil oralig'ida bu stabil kechmaydi. Viloyat qishloq aholisining tug'ilish darajasi pasaygani holda aholi sonining oshib borishiga o'lim ko'rsatkichlaridagi stabillik sababdir. Buni biz viloyat qishloq tumanlarida keyingi 30 yil davomida o'lim ko'rsatkichini tahlil qilgan holda ko'rishimiz mumkin.

16- jadval

Viloyat tumanlarida aholining o'lim darajasi
(har 1000 kishiga nisbatan)

Tumanlar nomi	1979	1989	1991	1999	2009	2014
---------------	------	------	------	------	------	------

Arnasoy	6,0	3,9	2,9	2,8	2,7	3,3
Baxmal	7,0	7,0	6,4	5,2	4,7	4,5
Jizzax	7,4	4,4	5,7	4,7	3,9	4,4
Do'stlik	5,1	4,4	3,9	3,0	3,1	3,3
Zomin	3,8	5,1	4,9	4,7	4,3	4,3
Zarbdor	-	-	4,6	3,7	3,7	3,7
Zafarobod	4,9	4,6	4,5	3,8	3,3	3,1
Mirzacho'l	4,7	4,9	4,6	3,4	3,3	2,5
Paxtakor	5,5	4,9	3,7	3,7	3,8	4,1
Forish	6,6	6,3	5,9	4,7	4,2	3,8
Yangiobod	-	-	-	5,3	4,6	4,0
G'allaorol	8,6	6,5	5,7	4,7	4,8	4,5
Viloyat bo'yicha	6,2	5,5	5,0	4,2	4,1	2,5

Manba: Jizzax viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

So'nggi 30 yil davomidagi o'lim darajasi bo'yicha farqlar nisbatan ushbu davr ichida deyarli saqlanib turibdi. Har holda o'lim darajasining pasayishi barcha tumanlarda ayniqsa so'nggi yillarda pasaygan. Ba'zi tumanlardagi o'lim darajasining yuqoriligi, ayni tumanlarda aholining son jihatdan ancha ustunligi bilan ham izohlanadi.

Agar tumanlardagi tabiiy o'sish darajalari taqqoslab ko'rilsa, viloyat bo'yicha 30 yil ichida eng yuqori ko'rsatkich 1979 yilda Zafarobod tumanida (46,1 %) kuzatilganligini ko'ramiz. Turli tumanlardagi tabiiy o'sish sur'atining qay darajada rivojlanganligini taqqoslab ko'rish orqali tumanlardagi aholi rivojlanishidagi ahvol haqida xulosa chiqarish mumkin.

17- jadval

Viloyat tumanlaridagi tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari
(1000 kishiga nisbatan)

Tumanlar nomi	1979	1989	1991	1999	2009	2014
Arnasoy	42,1	39,9	36,8	15,0	14,6	20,2
Baxmal	38,1	38,7	38,1	22,6	21,0	26,0
Jizzax	38,4	26,7	37,3	19,0	21,8	21,5
Do'stlik	35,8	37,1	35,4	14,7	19,9	23,5
Zomin	37,7	32,5	36,9	18,8	20,7	20,4
Zarbdor	-	-	40	15,0	19,9	20,5
Zafarobod	46,1	40,7	38,7	17,2	19,0	18,3
Mirzacho'l	34,3	34,0	30,5	18,1	18,3	16,6
Paxtakor	37,7	34,3	34,0	14,8	19,9	19,3
Forish	32,5	34,2	37,5	19,8	18,8	19,5
Yangiobod	-	-	-	17,5	19,5	19,0
G'allaorol	34,1	33,7	31,9	17,7	19,5	18,9
Viloyat bo'yicha	34,4	33,5	32,8	17,6	19,5	19,9

Manba: Jizzax viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

Ko'rinib turibdiki, ushbu yillar davomida tabiiy o'sish bo'yicha tumanlari ichida eng past ko'rsatkich 2009 yilda Arnasoy tumanida kuzatiladi. Lekin bir yil davomida tug'ilishning keskin darajada ko'tarilishi tumanda tabiiy o'sish ko'rsatkichida ham ko'rinib turibdi. Umuman, 2000 yildan so'ng viloyat qishloq tumanlarida tabiiy o'sish sur'atining pasayishi kuzatiladi. Agar 1979 yildan 2009 yilgacha davr oralig'idagi ko'rsatkichlar solishtirilsa, viloyat bo'yicha tabiiy o'sishning nisbatan ancha pasayganligi kuzatiladi. Ushbu yillar ichida eng past ko'rsatkich 1999 yilga tegishlidir (17,6 %), 1999 yildan keyingi yillarda esa tabiiy o'sish ko'rsatkichlarida yuqoriga ko'tarilish kuzatiladi.

Tumanlarda tabiiy o'sishning yillar davomida tebranishi qishloqlarda mavjud ijtimoiy iqtisodiy omillarga bog'liqdir. Tug'ilish va o'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, hududlardagi aholining demografik mayliga va umr

davomiyligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa hududlardagi aholining kelajak turmush darajasini yaxshilash rejasini belgilab beradi. Qo‘rinib turibdiki, viloyat bo‘yicha tabiiy o‘shish oldingi yillarga nisbatan ko‘tarilib bormoqda. Tabiiy o‘shishning qishloq tumanlarida tebranishini ko‘rib chiqilsa, bu holat Arnasoy tumanida ancha keskin ekanligi bilinadi, doimiy pasayish esa Mirzacho‘l tumaniga xosdir. Intensiv o‘shish holati esa Paxtakor tumanida ro‘y bermoqda, eng barqaror rivojlanishni esa Jizzax va Yangiobod, shu bilan birga Forish tumanida kuzatish mumkin.

Migratsiya saldosining yillar davomida o‘zgarishi ko‘rib chiqilganda, ma’lum bo‘ladiki, 1979 yilda faqat tog‘li tumanlardagina saldoning manfiy bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. O‘sha yillarda viloyatdagi iqtisodiy rivojlanish tizimida keng miqyosda o‘zgarishlar yuz berayotganligi, cho‘l hududlarida yangi aholi punktlari vujudga kelayotganligi aholining ushbu tumanlarga ko‘plab ko‘chib kelishi, shu bilan birga ko‘chib ketishiga asosiy sabab bo‘lgan. Eng katta musbat saldo Arnasoy tumaniga tegishli, o‘sha yillarda Arnasoy tumanida ko‘plab yangi xo‘jaliklar tashkil qilingan edi. 1990 yilga kelib aholining mexanik harakatida keskin o‘zgarish ro‘y bergan. Ayni Arnasoy tumani misolida migratsiya saldosining qay darajada tushganligining o‘zi, oldingi yillarga nisbatan deyarli qarama – qarshi yo‘nalish olganligini ko‘rishimiz mumkin.

18- jadval

Viloyat tumanlarida aholining mexanik harakati
(ming kishiga nisbatan)

Tumanlar nomi	1979			1990			1998			2008		
	kelganlar	ketganlar	migratsiya saldosi	kelganlar	ketganlar	migratsiya saldosi	Kelganlar	ketganlar	migratsiya saldosi	kelganlar	ketganlar	migratsiya saldosi
Arnasoy	60,0	13,0	47,0	48,4	50,3	-1,9	15,2	26,3	-11,1	5,2	6,5	-1,3
Baxmal	0,7	1,6	-0,9	3,3	8,4	-5,1	0,2	1,1	-0,9	2,1	2,2	-0,1
Jizzax	6,1	5,7	0,4	1,1	2,5	-1,4	2,5	3,9	-1,4	3,9	0,9	3,0
Do‘stlik	35	27,9	7,1	38,4	49,4	-11,0	2,1	6,6	-4,5	6,7	6,2	0,5

Zomin	7,7	7,4	0,3	9,7	15,1	-5,4	2,3	4,7	-2,4	0,5	2,0	-1,5
Zarbdor	-	-	-	-	-	-	8,2	16,4	-8,2	4,7	2,6	2,1
Zafarobod	43,8	39,9	5,9	29,3	35,2	-5,9	8,9	19,1	-10,2	4,3	6,6	-2,3
Mirzacho'l	23,9	21,4	2,5	22,9	28,0	-6,9	18,4	23,6	-15,2	15,2	23,8	-8,6
Paxtakor	13,4	11,8	1,6	27,7	56,1	-28,4	12,5	17,2	-4,7	0,5	1,9	-1,4
Forish	2,2	3,6	-1,4	5,9	13,0	-8,9	1,2	8,8	-7,6	3,9	7,0	-3,1
Yangiobod	-	-	-	-	-	-	-	-	-	2,8	5,8	-3,0
G'allaorol	3,2	4,6	-1,4	9,7	15,1	-5,4	3,1	6,9	-3,8	1,8	1,5	0,3
Viloyat bo'yicha	19,7	14,5	5,2	16,6	23,6	-7,0	5,4	10,1	-4,7	4,0	4,0	0,0

Tog'li tumanlarda migratsiya saldosining manfiy holatda saqlanib turishi, bu tumanlardagi yosh oilalarning boshqa tumanlarga ko'chishda davom etayotganligini bildiradi. Cho'l tumanlaridagi manfiy holat esa o'zlashtirish davrida ko'chirib keltirilgan aholining o'z yurtlariga qaytayotganligi bilan izohlanadi. Mustaqillik yillarida tumanlar bo'yicha migratsiya saldosini manfiy holatda davom etib kelmoqda. Ba'zi tumanlarda musbat saldoning yuzaga kelishi bu tumanlarda aholi punktlarining kengayayotganligini bildiradi. Ayniqsa, tog' va tog' oldi hududlarida qishloqlarning kengayishi va aholi zichlashuvi yuzaga kelmoqda. Jizzax shahri joylashgan Jizzax tumani ayni vaqtda aholi migratsiyasi saldosining yung yuqori musbat ko'rsatkichga ega. Jizzax shahri atrofida ishlab chiqarish va aholining uy – joy bilan ta'minlanishi imkoniyatining mavjudligi aholining ko'plab ko'chib kelishi uchun sharoit yaratadi.

Viloyatdagi migratsiya jarayonini so'nggi yillar davomida kuzatilsa, viloyat bo'yicha manfiy ko'rsatkich saqlangan holda cho'l tumanlarida manfiy saldo hajmi ancha katta ekanligi kuzatiladi. Ayniqsa Mirzacho'l tumanida 2005 yilda juda katta (-92,7 %) bo'lgan. Tog'li tumanlarda esa bu ko'rsatkich borgan sari kichraymoqda.

19-jadval

Viloyat tumanlarida aholi migratsiyasining so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari
(%o hisobida)

	2005	2006	2007	2008
--	------	------	------	------

Tumanlar nomi	kelganlar	ketganlar	migratsiya salʼdosi	kelganlar	ketganlar	migratsiya salʼdosi	kelganlar	ketganlar	migratsiya salʼdosi	kelganlar	ketganlar	migratsiya salʼdosi
Arnasoy	11,9	25,2	-23,3	13,4	23,8	-10,4	4,1	13,3	-9,2	5,2	6,5	-1,3
Baxmal	4,8	5,7	0,9	3,9	5,8	-1,9	1,8	2,7	-0,9	2,1	2,2	-0,1
Jizzax	6,7	6,8	-0,1	6,8	5,5	1,3	3,5	2,7	0,8	3,9	0,9	3,0
Doʻstlik	10,4	23,0	-12,6	9,8	17,0	-7,2	5,2	7,5	-2,3	6,7	6,2	0,5
Zomin	0,4	3,5	-3,1	0,5	2,8	-2,3	0,2	1,1	0,9	0,5	2	-1,5
Zarbdor	7,6	10,9	-3,3	8,8	10,5	-1,7	4,7	5,8	-1,1	4,7	2,6	2,1
Zafarobod	14,8	50,6	-35,8	9,5	24,0	-14,5	3,4	10,4	-7,0	4,3	6,6	-2,3
Mirzachoʻl	21,2	113,9	-92,7	24,1	61,6	-37,5	13,4	39,7	-26,3	15,2	23,8	-8,6
Paxtakor	1,2	7,7	-6,5	2,0	2,3	-0,3	0,9	1,5	-0,6	0,5	1,9	-1,4
Forish	6,4	33,3	-26,9	7,2	20	-12,8	5,0	13,9	-8,9	3,9	7	-3,1
Yangiobod	6,7	9,8	-3,1	6,5	12,3	-5,8	2,5	5,4	-2,9	2,8	5,8	-3,0
Gʻallaorol	4,0	8,2	-4,2	4,3	7,8	-3,5	1,5	2,5	-1,0	1,8	1,5	0,3
Viloyat boʻyicha	6,9	18,0	-11,1	6,7	11,7	-5,0	3,6	6,6	-3,0	4,0	4,0	0,0

Jadvaldan koʻrinib turibdiki viloyatning shimoli – sharqida joylashgan tumanlardan aholi koʻplab koʻchib ketmoqda. Mirzachoʻl, Zafarobod va Arnasoy tumanlaridagi migratsiya salʼdosi manfiy koʻrsatkichi bu hududlardagi aholi muammolarini oʻrganib chiqishni taqozo etadi. Bunda tumanlardagi milliy tarkib alohida taʼsir etayotgan boʻlishi mumkin. Maʼlumki, qoʻshni Qozogʻiston Respublikasining ijtimoiy siyosati qozoq millatiga xos kishilar, koʻchib oʻta boshladilar. Lekin koʻchib ketuvchi aholi oʻrnini toʻldirish masalasi mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tashkil qilinishi lozim. Viloyat aholisining son jihatdan oʻsishi, tumanlararo migratsion harakatni taʼminlaydi.

Viloyat qishloq tumanlaridagi aholining tabiiy va mexanik harakatini yillar kesimida tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, viloyat qishloq tumanlarida aholi miqdor jihatdan koʻpayib bormoqda. Barcha tumanlarda, ayniqsa togʻli tumanlarda tabiiy koʻpayish surʼati ortib bormoqda. CHoʻl tumanlarida tugʻilish darajasi bir oz pasaygan va migratsiya salʼdosidagi manfiy koʻrsatkich ham kattalashmoqda. Bu

kelajakda cho‘l qishloqlarida mehnat resurslarida yetishmovchilikni yuzaga keltirish mumkin. Aholi an‘anaviy yashash hududlari bo‘lgan dasht va tog‘ oldi zonalarida yangi qishloqlarni bunyod qilmoqda va kengaytirmoqda. Bu hududlarda aholi joylashuvini to‘g‘ri tashkil qilish, aholining milliy va an‘anaviy turmush tarziga xos xususiyatlarini shakllantirish, shu bilan birga resurslardan oqilona foydalanish choralarini ishlab chiqish va joriy qilish masalalari dolzarb tus olmoqda.

III. BOB. JIZZAX VILOYATIDA AHOLI RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.

III.1 Viloyat aholisi demografik rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar.

Jizzax viloyatida aholining demografik rivojlanishiga turli omillar o‘ziga xos ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar o‘z xarakterlariga ko‘ra tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy bo‘lishi mumkin. Ayni omillar xususiyatlarini hisobga olish viloyat aholisining dinamik o‘rishini hududiy muvofiqlashtirishga va mehnat resurslaridan foydalanishni tartibga solishga yordam beradi.

Aholining miqdoriy ko‘payishiga ta’sir etuvchi omilardan eng birinchisi aholi joylashuviga bevosita ta’sir etuvchi tabiiy sharoitdir. Yuqorida ta’kidlanganidek viloyatdagi tog‘ va o‘zlashtirilgan cho‘l mintaqalari aholi joylashuviga, binobarin demografik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

20-jadval

Jizzax viloyati aholisining mintaqaviy nisbatlari

mintaqalar	Umumiy maydoni ming km ²	Viloyat maydonidagi ulushi%	Umumiy aholi (ming kishi)	Viloyat aholisi sonidagi ulushi %
Tekislik mintaqasi				

(Arnasoy, Mirzacho‘l, Do‘stlik, Zafarobod, Paxtakor, Zarbdor tumanlari)	3,59	16,9	317800	26,0
Tog‘ va tog‘ oldi mintaqasi (Baxmal, Jizzax, Zomin, Forish, G‘allorol, Yangiobod tumanlari)	17,52	82,6	745800	61,0
Jizzax shahri	0.1	0,5	163200	13,0
Viloyat bo‘yicha	21,21	100	1226800	100

Aholi joylashuvining alohida e‘tiborga molik jihati shahar va qishloq aholisidagi miqdoriy nisbatlardir. Viloyatda shahar aholisining salmog‘i 47% bo‘lsada, ko‘pgina shahar maqomiga ega aholi punktlari hayot tarzi bo‘yicha qishloq ko‘rinishiga ega. Ma‘lumki qishloqlarda tug‘ilish darajasi hamisha yuqori bo‘ladi. Binobarin viloyat aholisining miqdoriy o‘sinh dinamikasida tug‘ilish jarayoni yetakchi maqomga ega bo‘lishi doimiy holat bo‘lib qolaveradi.

21-jadval


Viloyat tumanlari aholisining hududiy taqsimoti

Hudud nomi	aholisi 01.01.2014 holatiga (kishi)	shahar aholisi	qishloq aholisi	urbanizatsiya darajasi %
Arnasoy	41857	14707	27150	35%
Baxmal	136465	37146	99319	27%
Do‘stlik	58921	25207	33714	43%
Jizzax	188960	76437	112523	40%
Zomin	158718	71695	87023	45%
Zarbdor	60357	38794	21563	64%
Zafarobod	45002	20775	24227	46%
Mirzacho‘l	44858	24530	20328	55%
Paxtakor	66779	33175	33 604	50%
Forish	83359	15452	67 907	19%
Yangiobod	25478	5219	20 259	20%

G'allaorol	152864	55040	97824	36%
Jizzax shahri	163204	163204	0	100%
Viloyat bo'yicha	1226822	581381	645441	47

Aholining demografik rivojlanishida viloyat aholisi jinsiy tarkibi muhim ahamiyatga ega. Aholining tabiiy harakati holatiga ta'sir etuvchi bu strukturalarning xususiyatlarini tahlil qilish alohida mavzuga molikdir. Ayni vaqta jinsiy tarkib nisbati haqida tasavvur hosil qilish birlamchi xulosa chiqarishga yordam beradi. Aytib o'tish joizki, aholi tarkibida erkaklar nisbatining bir oz yuqoriligi ko'p yillardan beri saqlanib kelmoqda. Bu holatning asosiy sababi, aholining ko'p qismi qishloqlarda istiqomat qilishi va qishloq ayollarining o'z salomatligiga e'tibor bilan qaramasligidir. Mustaqillik yillarida ayollar sog'ligini saqlashga katta e'tibor qaratildi. Bu borada qilinayotgan ishlar o'z natijalarini ko'rsatib, onalar o'limi darajasi pasaydi, o'rtacha umr davomiyligi ham birmuncha uzaydi.

8-rasm



Aholi rivojlanishiga ayni vaqta turli darajada ta'sir ko'rsatayotgan yana bir omil aholining ko'chishidir. Ma'lumki, keyingi yillarda viloyat ichki migratsiyasi oqimida sezilarli o'zgarish yuz berdi. Aholining viloyatdan tashqariga ketishi barqaror ko'rsatkichlarga egaligi yuqorida ko'rib o'tildi. Migratsiya saldosing muvofiqlashuvi, hududlararo migratsiyaning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib beradi. SHu bilan birga migratsiyaning yo'nalishlarini o'rganish aholi demografik rivojlanishiga kelajakda ta'sir etuvchi omillarni hisobga olishga yordam beradi.

Viloyatda aholi migratsiyasi vaqt mezonlari bo'yicha quyidagi darajalarda ro'y beradi:

- ✓ Doimiy yashash uchun ko'chib o'tish;
- ✓ Mavsumiy ishlash uchun ketish;
- ✓ Tebranma migratsiya.

Aholi migratsiyasining mezonlari bo'yicha demografik rivojlanishga bevosita yoki bivosita ta'sir ko'rsatishi mumkig bo'lgan holatlar haqida mulohaza yuritish mumkin. Doimiy yashash uchun keluvchilar yoki ketuvchilar nisbati aholi demografik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lishini e'tiborga olib, bu migratsion harakatlarning tashqi yoki ichki yo'nalishlardagi miqdoriy nisbatlari doimiy tahlil qilinishi zarur. Boshqa mezonlar ham o'z navbatida qaysi bir holatlarda demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu hodisalar tahlili alohida tadqiqot ishlarini talab etadi. Binbarin, migratsiya mezonlarining demografik jarayonlarga ta'siri mavjudligi doimo yodda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan masalalar, viloyat aholisi demografik rivojlanishiga doimiy va bevosita ta'sir etuvchi o'ziga xos omillar bo'lib, demografik jarayonlarning dinamik o'zgarishida albatta hisobga olinishi zarur.

XULOSA.

Mamlakat aholisining son jihatidan ko‘payishi bevosita undagi aholi joylashuvining tarixiy xususiyatlari, rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq.

O‘zbekiston huquqidagi aholi statistikasi asosan sobiq ittifoq davrida aniq olib borilganligi uchun undan oldingi davr aholi soni va dinamikasi haqidagi ma’lumotlar ko‘proq taxminiy xarakterdadir. Lekin tarixiy ma’lumotlar va keyingi aniq statistik materiallar asosida shuni aytish mumkinki, 18 asr oxiri va shu kunlarga qadar mamlakat hududida aholi 12 barobardan ortiq ko‘paygan. Xususan, O‘zbekiston hududida birinchi aholi ro‘yxati 1897 yilda o‘tkazilgan bo‘lsa, bu tadbir mamlakatimizning hozirgi hududini to‘liq qamrab olmagan edi. Keyingi aholi ro‘yxatlari ham turi yillarda, respublika hududi endi shakllanayotgan davrlarda o‘tkazilgan. Sobiq ittifoq yillarining so‘nggi aholi ro‘yxati 1989 yilda o‘tkazilgan va bunda aholi soni 19880 ming kishi deb ko‘rsatilgan edi. Ayni kunda aholi soni 30 mln dan oshib ketganligini hisobga olinsa, aholi soni ushbu yillar

oralig'ida 12 mln kishiga ortganligi ko'rinib turibdi, bu yiliga o'rtacha 480 ming kishidan to'g'ri keladi va tabiiy o'sish sur'ati 1,6 % ni tashkil etadi.

O'zbekiston shahar aholisining salmog'i doimo va izchil ravishda pasayib borgan. 1990 yilda shahar aholisining umumiy salmog'i 40,8% ni 1995 yilda 38,4% ni 2000 yilda 37,6% ni 2005 yilda 36,1% ni 2007 yilda 35,9% ni tashkil etgan. 2009 yilda mamlakatda 991 ta qishloqlarga shaharcha maqomining berilishi urbanizatsiya salmog'ining keskin ko'tarilishiga olib keldi va urbanizatsiya darajasini 51,7% ga yetkazdi. Endilikda mamlakat va ba'zi viloyatlarda ham urbanizatsiya darajasi yuqori holatda deyish mumkin. Bunday tadbir mamlakat aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, aholi turmush tarzini zamon ruhiga va jahon andozalariga mos o'zgarishi, mamlakat umumiy taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishiga yordam beradi. Endilikda shahar maqomini olgan qishloqlarda shahar infrastrukturasini va shahar turmush tarzini shakllantirish, madaniy va siyosiy-ijtimoiy tushunchalarni shakllantirish vazifasi turadi.

O'zbekistonda tug'ilishning yuqori bo'lishi uzoq tarixiy davr mobaynida xarakterli jihat bo'lib kelgan. Sobiq ittifoq davrigacha o'lim darajasining ham yuqori bo'lishi tabiiy o'sishni pasaytirib turuvchi omil bo'lib xizmat qilgan. 1917 yilgacha tabiiy o'sish ancha past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan. 1897 yilgi aholi ro'yxatida O'zbekiston hududidagi tug'ilish koeffitsienti 49,8 ‰, o'lim koeffitsienti 44,8‰ bo'lib, tabiiy o'sish koeffitsienti tabiiyki, 5,0‰ ga teng bo'lgan. Tabiiy o'sishning bunday ko'rsatkichlari 1917 yilgacha saqlanib turgan.

Mamlakat hududida aholi tabiiy o'sish ko'rsatkichlari muayyan yillar oralig'ida qiyoslanishi maqsadga muvofiq. Bunda ayni davr oralig'idagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi rasmda 50 yillik davrdagi aholi soni ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, XX asrning birinchi yarim yilligi oralig'ida aholi soni unchalik katta miqdorda o'zgarmagan bo'lsa, ikkinchi yarim yillik oxiridagi raqam 4 baravar ortiq ko'rsatkichga ega. Buning qanday ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarga ega ekanligi tarixdan ma'lum. Xususan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, siyosiy barqarorlik aholi sonining o'sishiga ijobiy tas'ir ko'rsatishi aniq ko'zga

tashlanib turibdi. Jizzax viloyati aholisining tarkib topishida turli tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatgan. Jizzax viloyati tashkil etilganidan beri viloyat aholisi soni, tarkibida turli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Viloyat aholisining soni 1973 yilda 388 ming, 1979 yilda 510,7 ming, 1989 yilda 736,7 ming, 1999 yilda 980,2 ming, 2003 yilda 1,007 ming, 2009 yilda 1116,8 ming kishini tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki viloyat tashkil etilganidan beri 30 yil ichida aholi uch barobar ko'paygan. Ayniqsa, so'nggi yillarda o'sish sur'ati katta bo'lganligini ko'rish mumkin. Bunday o'sish tendentsiyasi pasayib bormoqda. Agar 2006 yilda viloyat aholisining umumiy soni 1051,4 kishi bo'lgan bo'lsa, 2007 yilda 1065,3 kishini, 2008 yilda 1081,5 kishini tashkil qildi. 2007 yilda aholi 11,9 ming kishiga ortgan bo'lsa, 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 15,8 ming kishiga ko'paygan.

1979 yilgi aholi ro'yxatidan boshlab har 10 yildagi aholi sonining o'sishi tahlil qilinsa, bu miqdor doimiy ravishda ko'payib borganligi kuzatiladi. Jumladan, 1979 yilda viloyat aholisi 511,7 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1989 yilgi aholi ro'yxatida bu raqam 738,0 ming kishiga yetgan, ya'ni 10 yil ichida 266,3 ming kishiga ko'paygan, demak, har yili o'rtacha 26,6 ming kishidan ko'payib borgan. Ushbu yillar sobiq Ittifoq davriga to'g'ri kelib, Jizzax viloyati o'sha davrda respublikada mehnat resurslarini eng ko'p jalb qiluvchi mintaqa edi. 1991 yilda bu ko'rsatkich 824,3 ming kishini, 1999 yilda 980,2 kishini, 2001 yilda 1011,0 ming kishini va 2011 yilda 1166,8 ming kishini tashkil etdi. Mustaqillikning birinchi 10 yilligida aholi 155,9 ming kishiga ikkinchi 10 yilligida 155,8 ming kishiga ko'paygan, demak aholi soni yiliga o'rtacha 15,8 ming kishidan o'sib borganligini ko'ramiz. Bu mustaqillikkacha bo'lgan 10 yillikka nisbatan deyarli yarim baravar kam. Bu holat mustaqillik yillarida aholi soni asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'payganligi bilan izohlanadi. Tabiiy harakat O'zbekiston aholisining miqdoriy ko'payishidagi bosh omil ekanligi yuqorida ta'kidlangan edi. Bu xulosa Jizzax viloyatiga ham tegishlidir.

Aholining tabiiy harakati aholining miqdoriy o'sishidagi asosiy omildir. Lekin aholining mexanik harakati, ya'ni hududiy ko'chib yurishi ham alohida

ahamiyatga ega. Ayniqsa Jizzax viloyatining qishloq tumanlari, xususan cho‘l zonasidagi xo‘jaliklar qator yillar davomida aholining mexanik harakati natijasida shakllangan. Ayni vaqtda ham cho‘l xo‘jaliklarida aholining ko‘chishi jarayoni doimiy ro‘y bermoqda. Tog‘li tumanlarda qishloqlar aholining bir muncha barqaror tarkibiga ega. Ammo, ushbu qishloqlarda aholining ayniqsa yosh oilalarning ko‘chishi doimiy ravishda kuzatiladi. Bu Jizzax viloyatida aholining hududiy tashkil qilinishi va mehnat taqsimotidagi muammolar bilan bog‘liqdir.

Aholining miqdoriy ko‘payishiga ta’sir etuvchi omilardan eng birinchisi aholi joylashuviga bevosita ta’sir etuvchi tabiiy sharoitdir. Yuqorida ta’kidlanganidek viloyatdagi tog‘ va o‘zlashtirilgan cho‘l mintaqalari aholi joylashuviga, binobarin demografik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev SH. M. “Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda tashkil etamiz” 2018y.
2. Mirziyoev SH. M. “ Q’atiy tartib –intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak” 2018y
3. M.R. Bo‘rieva. “Demografiya asoslari” . T. 2009 y.
4. G. Asanov, M. Nabixonov, I. Safarov. “O‘zbekiston iqt. va ijt. geografiyasi” . T. O‘qituvchi, 1994 y .
5. H. Vahobov, M. Tillaboeva. “Iqtisodiy geografiya asoslari”. T. O‘qituvchi, 2001 y.
6. K.Boratov. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi.1994 y T.
7. Milliy Entsiklopediyasi 3-tom Toshkent 2002 y. “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi” nashriyoti

8. L. Alibekov. S. Nishonov «Природные условия и ресурсы Джизакской области» Т. «Узбекистон» 1978 г.
9. Asanov G. Aholi geografiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 1978 y.
10. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug‘at. Toshkent, “O‘qituvchi” 1990 y.
11. P. Musaev. J. Musaev «O‘zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi» 8-sinf darsligi. T. “O‘qituvchi” 2008 y.
12. P. G‘ulomov “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” 7-sinf darsligi T. “O‘qituvchi” 2008 y
13. Soliev A. S. tahriri ostida. Qishloq joylar demografiyasi – T., 2005.
14. Tojjeva Z. N. Jizzax viloyati aholi o‘shishi va joylanishidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar. Avtoreferat. – T.: Universitet, 1998.
15. Haydarova S., Ismailov A. Jizzax viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. O‘zbekiston Geografiya jamiyati, 30 – jild – T., 2009.
16. Haydarova S., G‘apparov A. Jizzax viloyati qishloq aholisining demografik rivojlanishi O‘zbekiston Geografiya jamiyati, 30 – jild – T., 2009.
17. Haydarova S. Jizzax viloyati tog‘li hududlar qishloqlarining rivojlanish xususiyatlari O‘zbekiston Geografiya jamiyati, 33 – jild – T., 2009.
18. Hakimov Q., G‘o‘dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax, Institut. 2003.
19. Internet saytlar: <http://geo.1september.ru>
[www. geografya. ru](http://www.geografya.ru)
[www. wgeo. ru](http://www.wgeo.ru)

